جديد

Jadid

Tilda, fikrda, ishda birlik!


2026-yil 13-noyabr
№ 46 (150)
www.jadid.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

EHTIROM


ASRNI BO‘YLAGAN ADIB



Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatrida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan xotira kechasi bo‘lib o‘tdi.

(Davomi 8-sahifada).

BUGUN – USMON NOSIR TUG‘ILGAN KUN



Usmon NOSIR

BOG‘IM

O, u qanday fusunkor!
Nur bilan to‘lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman:
Ko‘nglimda yashnar bahor…
Nur bilan to‘lgan butun.
Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas meni bog‘im:
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur.
Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog‘im!
She’rlarim yangrab qolur –
Bir umrga o‘lmayman!
Hayotimning davomi –
Kelajagimga homiy,
O‘rnimga bog‘bon bo‘lur –
Bir umrga o‘lmayman!
O, u qanday davomdor!
Nur bilan to‘lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman:
Ko‘nglimda yashnar bahor…
Nur bilan to‘lgan butun.

YETTIKUNLIK

KELAJAK UCHUN MAS’ULIYAT



O‘tib borayotgan hafta O‘zbekiston hayotida ijtimoiy soha, sanoat taraqqiyoti va xalqaro ekologik hamkorlik bilan bog‘liq muhim voqealarga boy bo‘ldi. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni munosabati bilan yo‘llangan tabrik, elektrotexnika sanoati vakillari bilan muloqot, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi doirasidagi loyihalar hamda Prezident Shavkat Mirziyoyevning COP31 tadbirlaridagi ishtiroki mamlakat taraqqiyotining o‘zaro bog‘liq ustuvor yo‘nalishlarini namoyon etdi.

BOSH MAQSAD – INSON SALOMATLIGI

8-noyabr – Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni munosabati bilan Prezident tabrigida soha vakillarining jamiyat hayotidagi o‘rni alohida e’tirof etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tabrigining asosiy mazmuni tibbiyot tizimini modernizatsiya qilish orqali har bir insonga o‘z vaqtida, sifatli va malakali tibbiy yordam ko‘rsatish g‘oyasiga borib taqaladi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Buning isboti o‘laroq, sohani moliyalashtirish hajmi yetti barobarga oshib, 49 trillion so‘mga yetkazilgani tibbiyotga davlat siyosati darajasida katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Bu mablag‘lar tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining yangi modeli joriy etilayotgani, bunda aholi salomatligini saqlashda asosiy urg‘u kasallikni davolashdan ko‘ra, uni erta aniqlash va oldini olishga qaratilayotgani e’tiborga molik.

Tibbiyotning davr bilan hamnafas bo‘lishi uchun esa sohani raqamlashtirish va unga sun’iy intellektni olib kirish zamon talabi. DMED elektron axborot tarmog‘i orqali 38 milliondan ziyod aholining tibbiy kartasi yaratilgani sohada raqamli transformatsiya jadal ketayotganini anglatadi. Sun’iy intellektni shifokor va hamshiralarga ko‘makchi sifatida joriy etish ham istiqbolli qadamdir. Tibbiy oliygohlarga qabul kvotasining 4,5 barobar oshishi, ta’lim dasturlarining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishi va xorijiy talabalar sonining ko‘payishi O‘zbekiston tibbiy ta’limining xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotganini namoyish etadi.

2027-2028-o‘quv yilidan mutaxassislarni tayyorlashni to‘liq rezidentura dasturlari orqali amalga oshirish rejasi esa tibbiy kadrlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

(Davomi 2-sahifada).

FAKT

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoyishi e’lon qilindi.
- O‘zbekiston Birinchi xonimi Ziroat Mirziyoyeva “Nol chiqindi” (Zero Waste) Global alyansini tashkil etishga bag‘ishlangan yuqori darajadagi uchrashuvda ishtirok etdi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Parij tinchlik forumida qatnashdi hamda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bilan uchrashdi.
- Yanvar–oktyabr oylarida 11 million 622 ming 103 nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan.

ZAMONDOSH

“JAVOHIR SINDOROVNING BOBOSI BO‘LIB TANILDIM”

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, yuridik fanlar doktori, yozuvchi Komil SINDOROV bilan suhbat

– Assalomu alaykum, ustoz. Sizni ham bobo, ham O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi rais o‘rinbosari sifatida Javohir Sindorovning Sent Luis (AQSH) shaxmat klubida bo‘lib o‘tgan “Clutch Chess: Champions Showdown 2026” xalqaro turnirdagi g‘alabasi bilan muborakbod etamiz!

– Rahmat! Jahon chempionligi bahslari oldidan so‘nggi muhim qadam bo‘ldi bu. Javohir yana chempionlik nashidasini suryapti. Mukofot jamg‘armasi 425 ming dollar bo‘lgan musobaqada 1-o‘rin uchun 125 ming dollar, alohida partiyalardagi g‘alabalar uchun qo‘shimcha to‘lovlar va maxsus jekpot bilan birga umumiy yutug‘i 168 ming dollar berildi g‘olibga. Bu raqamlarni ma’lumot uchun keltiryapman. Asosiysi, ushbu g‘alaba katta sinov oldidan nevaramga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi. Bu yanada dadil dona surishiga kuch bo‘ladi.

Samarqandda o‘tgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida erishgan tarixiy g‘alabamizning shukuhi hamon tarqagani yo‘q.

(Davomi 6-sahifada).



TALQIN

TADQIQOT-ROMAN

“Yaldo kechasi” asarini tadqiqot-roman sifatida baholash mumkin. Chunki bu asar juda katta badiiy xomashyoni qamrab olgan. Romanga asos bo‘lgan material shu qadar keng qamrovliki, uni qamrab olish va bemalol yayrab badiiy asar yozishni tasavvur qilish qiyin.

Ana shu chek-chegarasiz materialni ipidan ignasigacha diqqat-e’tibor bilan o‘rganib chiqish, saralash, muhimlarini nomuhimlaridan ajratish, har birini badiiy asar matniga o‘rni-o‘rni bilan tatbiq etish – bu ulkan tadqiqotchilik salohiyatini talab etadi. Ulkan tadqiqotchilik salohiyatigina emas, balki ulkan tadqiqotchilik mehnati, mashaqqati, iztiroblarini ham taqozo etadi. Ana shularga ko‘ra, uni bemalol roman-tadqiqot, deya baholash mumkin.

Nazarimizda, bunday romanni Xayriddin Sultondan boshqa bir yozuvchi yoza olmas edi.

(Davomi 3-sahifada).

ADABIY DO‘STLIK – ABADIY DO‘STLIK



O‘ZBEK-QOZOQ MADANIY HAMKORLIGI MUSTAHKAMLANMOQDA

O‘zbek va qozoq xalqlari tili, dini va madaniyati bilan bir-biriga chambarchas bog‘langan ellardir. Ajdodlarimiz ming yillar davomida yonma-yon yashab, hayotning quvonch va tashvishlarini, yaxshi-yomon kunlarni birgalikda boshdan kechirib, taqdirdosh bo‘lib kelishgan. Bu qardoshlik keyingi yillarda, ayniqsa, mustahkamlanib, yangicha mazmun va ruh bilan boyib bormoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning siyosiy irodasi va amaliy harakatlari hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Xususan, ijodkor ziyolilarimizning yaqin hamkorligi yangi bosqichga ko‘tarildi. Mamlakatlarimizda o‘zaro adabiyot va madaniyat kunlarining o‘tkazilishi ezgu an’anaga aylandi.

(Davomi 3-sahifada).

JARAYON

“Tajribamdan o‘tkazdimki, kengash ahli birlik, ittifoqlik bilan so‘zda sobit, ishda chidamli bo‘lishlari shartdir. Qilmoqchi bo‘lgan ishlarini qilmasdan qoldirmasunlar. Agar biror ishni qilmaslikka so‘z berar ekanlar, uning yaqiniga ham yo‘lamasunlar”.

“TEMUR TUZUKLARI”dan

MILLIY YUKSALISH SARI

Joriy yilning 10-14-noyabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk marotaba “O‘zbekiston ziyolilari kengashi”ning hududiy yig‘ilishlari bo‘lib o‘tmoqda.

Mazkur muloqotlar dunyoda yuz berayotgan madaniy, siyosiy va texnologik o‘zgarishlar, shuningdek, qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, Yangi O‘zbekistonni qurish va Milliy yuksalish davri sari dadil qadam tashlash jarayonida ziyolilarning o‘rni, tashabbuskorligi va faol ishtirokini oshirishga qaratilgan.

Ziyolilarning davlat qurilishi va jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokini tubdan kuchaytirish, qo‘llab-quvvatlash va ularga munosib shart-sharoit yaratib berish tashabbusi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yilgi saylovoldi dasturida ilgari surilgan edi.

(Davomi 2-sahifada).



KELAJAK UCHUN MAS’ULIYAT

Boshlanishi 1-sahifada.

Eng asosiysi, tabrik tibbiyot sohasidagi natijalar sarhisobi bo‘lish bilan birga, yangi vazifalar dasturi hamdir. Unda zamonaviy infratuzilma, raqamlashtirish, tibbiy sug‘urta, kadrlar tayyorlash, xususiy sektor va farmatsevtikani rivojlantirish kabi masalalar bir butun tizim sifatida qaralgan. Islohotlarning haqiqiy ahamiyati esa har bir inson qayerda yashashidan qat’i nazar, sifatli tibbiy yordam olishi, kasalliklarning oldini olish va uzoq hamda sog‘lom umr kechirish imkoniga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

ELEKTROTEXNIKA SANOATIDA TUB BURILISH

9-noyabr kuni elektrotexnika sanoati tadbirkorlari va xorijiy investorlar bilan o‘tkazilgan muloqot mamlakat iqtisodiyotida yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirishga e’tibor kuchayganini ko‘rsatdi. Elektrotexnika sohasi bugun faqat maishiy texnika ishlab chiqarish bilan cheklanmaydi. U energetika, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya, “aqlli” uylar, elektromobillar, avtomatlashtirish va “yashil” texnologiyalar uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni qamrab oladi. Sohada yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, mahalliylashtirish va eksportni oshirish vazifalari O‘zbekistonning sanoat siyosatida muhim burilishni anglatadi. Shu ma’noda, mamlakatimiz elektrotexnika sanoatini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan uchrashuv tarmoqning bugungi holati va kelgusi vazifalarini belgilab bergani bilan ahamiyatlidir.

So‘nggi o‘n yilda sohaga 2 milliard dollar investitsiya kiritilib, 413 ta yangi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi. Ilgari mamlakatimizda ishlab chiqarilmagan yuzdan ortiq turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirishga erishildi. Natijada elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagi 1,7 trillion so‘mdan joriy yilda 50 trillion so‘mga yetdi. Eksport esa 14 barobar o‘sib, 1 milliard 600 million dollarni tashkil etdi.

Uchrashuvda mavjud salohiyatdan hali to‘liq foydalanilmayotgani ham ochiq qayd etildi. Bu esa tarmoqning keyingi bosqichi oddiy ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanmasligi, balki zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish va mahalliy korxonalarning raqobatdoshligini oshirishni talab etadi. Ayni paytda mamlakatimizda quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya saqlash quvvatlari, yirik sanoat hamda infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Kelgusi o‘n yilda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida xorijiy hamkorlar bilan 450 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bu jarayon elektrotexnika mahsulotlariga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Demak, ichki bozor ehtiyojini mahalliy mahsulotlar bilan ta’minlash ham iqtisodiy, ham strategik ahamiyatga ega. Nurafshon shahrida “Kelajak texnologiyalari markazi”ni tashkil etish tashabbusi ham uchrashuvda belgilangan vazifalarning amaliy davomi hisoblanadi.

Mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish, ilm-fan va sanoat hamkorligini mustahkamlash, hududlar salohiyatidan samarali foydalanish orqali ichki bozor ehtiyojini qondirish va eksportni 5 milliard dollarga yetkazish imkoniyati mavjud. Ushbu vazifalarning izchil amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotining texnologik mustaqilligini mustahkamlab, elektrotexnika sanoatini mintaqadagi yetakchi tarmoqlardan biriga aylantirishi mumkin.

OROL FOJIASI KUN TARTIBIDA

O‘zbekiston 2027–2029-yillarda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga raislik qiladi. Prezidentimizning Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi raisligi davrida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar bilan tanishuvi chog‘ida suv resurslari, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qamrab olgan 133 ta loyiha ishlab chiqilgani qayd etildi. Ularning umumiy qiymati 3,3 milliard dollarga baholanmoqda. Loyihalar suv xo‘jaligi inshootlarini modernizatsiya qilish, suvni taqsimlash va hisobga olish tizimlarini avtomatlashtirish, gidrometeorologik monitoring, qurg‘oqchilik va toshqinlarni oldindan prognozlash, aholini ichimlik suvi va sanitariya xizmatlari bilan ta’minlash kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yashil iqlim jamg‘armasi va Global ekologik jamg‘arma kabi institutlarning ishtiroki loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi doirasidagi hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi suv diplomatiyasining muhim institutsional maydoni hisoblanadi. Jamg‘arma tuzilmasi va shartnomaviy-huquqiy bazasini takomillashtirish, organlar vakolatlarini aniq belgilash va kun tartibini Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari qarorlari bilan uyg‘unlashtirish samarali vazifadir.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universitetining ilmiy-tahliliy platforma sifatida belgilanishi tashabbusning uzoq muddatli ahamiyatini oshiradi. Universitetda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, suv tejamkorligi va ekologik tiklanish bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirish, Markaziy Osiyo va Afg‘oniston uchun maxsus bakalavriat hamda magistratura dasturlarini ishga tushirish mintaqa uchun yagona ilmiy maktab shakllanishiga zamin yaratadi.

Taqdimotda Orol muammosi faqat ekologik fojia sifatida emas, balki suv xavfsizligi, iqtisodiy taraqqiyot, aholi salomatligi va mintaqaviy hamkorlik masalasi sifatida ko‘rib chiqildi. Belgilangan tashabbuslar O‘zbekistonning raisligi Orolbo‘yi va butun Markaziy Osiyoda suv diplomatiyasi hamda ekologik hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berishi mumkin.

COP31: IQLIM DIPLOMATIYASI VA YANGI IMKONIYATLAR MAYDONI

Turkiyaning Antaliya shahrida o‘tayotgan BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 31-sessiyasi – COP31 global iqlim kun tartibini muhokama qilish bilan birga, xalqaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilash uchun muhim maydon bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezidentimizning COP31 tadbirlaridagi ishtiroki O‘zbekistonning global iqlim kun tartibidagi faolligini ko‘rsatdi. Anjuman doirasidagi uchrashuvlar O‘zbekistonga “yashil” energetika, suv tejovchi texnologiyalar, iqlimga mos qishloq xo‘jaligi va ekologik infratuzilma uchun investitsiya jalb qilish imkonini beradi. Davlat rahbarining xalqaro tashkilotlar va davlatlar rahbarlari bilan ikki tomonlama muloqotlari esa amaliy hamkorlikni kengaytirish uchun muhim diplomatik omil hisoblanadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, iqlim muammolari chegara bilmaydi. Umumiy tahdidlar mintaqaviy hamkorlik, yagona yondashuv va mushtarak harakatlarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyoning Iqlim integratsiyasi modelini rivojlantirish tashabbusi strategik ahamiyatga ega. Ushbu modelni axborot, texnologiya va moliya kabi uchta asosiy yo‘nalishda rivojlantirish taklif etildi.

Birinchidan, iqlim xavflariga qarshi samarali kurashish uchun, avvalo, ishonchli va tezkor ma’lumot zarur. Shu maqsadda, eng avvalo, Jahon meteorologiya tashkiloti ko‘magida iqlim xavf-xatarlari haqida axborot almashish infratuzilmasini yaratish tashabbusi ilgari surildi. Ikkinchidan, iqlim o‘zgarishlariga moslashishda zamonaviy “yashil” texnologiyalar alohida o‘rin tutadi. Ular tuproqni qayta tiklash, qurg‘oqchil hududlarda uglerodni yutish, chang va qum bo‘ronlariga qarshi kurashishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Markaziy Osiyoning “Eco Expo” ko‘rgazmasini doimiy investitsiya va texnologiyalar maydoniga aylantirish tashabbusi shu jihatdan muhim. Uchinchidan, iqlimga moslashish va ekologik tiklanish katta mablag‘ talab qiladi. Taraqqiyot banklari va maqsadli jamg‘armalar bilan hamkorlikda imtiyozli grantlar, “moviy” va “qurg‘oqchil hududlar”ni moliyalashtirish kabi yangi mexanizmlarni ishlab chiqish taklifi shu ehtiyojga javob beradi.

Markaziy Osiyoda iqlim integratsiyasi modeli muhim natijalar beradi. Xususan, davlatlar o‘rtasida ishonch va axborot almashinuvini kuchaytiradi, tabiiy ofatlarga tayyorgarlikni yaxshilaydi, suv va yer resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi, ekologik texnologiyalar va investitsiyalarni jalb qiladi, iqlim o‘zgarishiga chidamli qishloq xo‘jaligini shakllantiradi, mintaqa aholisi salomatligi va farovonligini himoya qiladi. Eng muhimi, bu tashabbus iqlim masalasini raqobat emas, hamkorlik maydoniga aylantiradi.

* * *

Xulosa o‘rnida aytganda, haftadagi voqealar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rish mumkin. Tibbiyot inson salomatligini muhofaza qilsa, elektrotexnika sanoati texnologik iqtisodiyotni shakllantiradi. Orolbo‘yidagi loyihalar ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, COP31 O‘zbekistonning bu masalalarni xalqaro maydonda ilgari surish imkoniyatini kengaytiradi. Ularni birlashtiruvchi asosiy g‘oya – inson manfaati va kelajak uchun mas’uliyatdir.

Iqbol MIRZO

MILLIY YUKSALISH SARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, 2017-yildagi dastlabki uchrashuv aynan ziyolilar, olimlar va ijod ahli bilan o‘tkazilgani hamda qabul qilingan ilk tarixiy hujjatlar bevosita kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgani milliy yuksalish yo‘lida ziyolilar qatlamiga bildirilgan ulkan ishonchning yorqin ifodasi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan keyingi o‘n yillik mamlakatimizda “Milliy yuksalish davri” deb e’lon qilingani ma’lum. Ayni shu ulkan tarixiy maqsadni ro‘yobga chiqarish, ilmiy-intellektual va ijodiy salohiyatni yagona ezgu g‘oya atrofida birlashtirishga qaratilgan muloqotlar “Yangi O‘zbekiston ziyolilari – milliy yuksalish tayanchi” bosh shiori ostida tashkil etilmoqda. Ikki kunlik dastur asosida sho‘balarda muhokamalar bo‘lib, takliflar ishlab chiqilmoqda, yalpi majlislar o‘tkazilmoqda. Tadbirlarda hududlarning



intellektual salohiyatini namoyon etuvchi turli sohalar bo‘yicha yetakchi olimlar, akademiklar, professorlar, xalq ta’limi fidoyilari, tibbiyot sohasining yetuk mutaxassislari, yozuvchi va shoirlar, teatr, kino va san’at namoyandalari, madaniyat arboblari, yosh olimlar, innovatorlar, tadbirkorlar hamda ma’naviyat, xotin-qizlar va mahalla faollari ishtirok etmoqda.

Hududiy yig‘ilishlarning yalpi majlislarida:

birinchidan, “O‘z” falsafasining zamonaviy talqini, Yangi O‘zbekistonning ustuvor qadriyatlari, fuqarolik o‘zligini shakllantirish va “inson qadri” g‘oyasining amaliy ahamiyati;

ikkinchidan, jamiyatda vatanparvarlik va hamjihatlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlik, raqamli taraqqiyot va zamonaviy media makondagi o‘zgarishlar;

uchinchidan, milliy tarbiya, yoshlar, oila va xotin-qizlar, mahalla instituti, demografik salohiyatning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni;

to‘rtinchidan, o‘zbek tili, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, tarjima san’ati, noshirlik va kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish;

beshinchidan, tarix va milliy xotira, huquqiy tafakkur, davlatchilik an’analari va ma’naviy merosni qadrlash;

oltinchidan, madaniyat, san’at, teatr, kino hamda kreativ iqtisodiyotni zamon taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtirish;

yettinchidan, zamonaviy ilm-fan, ta’lim, innovatsion tibbiyot, yashil taraqqiyot, intellektual va ijtimoiy tadbirkorlik sohalarining milliy yuksalishdagi salmog‘ini oshirish masalalariga alohida urg‘u berilmoqda.

Tadbirlar doirasida hududlardagi ziyolilarning jamiyat hayoti va taraqqiyotiga oid ilg‘or fikrlarini bevosita eshitish, joylarda ko‘tarilayotgan dolzarb ijtimoiy-ma’naviy masalalarni ochiq muloqot shaklida muhokama qilish, mavjud muammolarning yechimi bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy taklif va tashabbuslarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yig‘ilishlar yakunida ilm-fan, ta’lim, tibbiyot, adabiyot, madaniyat va boshqa sohalar vakillari tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar umumlashtirilib, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan “O‘zbekiston ziyolilari kengashi”ning respublika yig‘ilishida taqdim etilishi nazarda tutilgan.

* * *

Ziyoli deganda faqat diplomli odam tushunilmaydi. Ziyoli – bu, yuragida xalq dardi bo‘lgan, el-yurt manfaati uchun kuyib-yonadigan, o‘z bilimini, tajribasini jamiyat rivojiga baxshida etadigan insondir.

Ziyolilik esa faqat bilimga ega bo‘lish emas, balki shu bilim bilan jamiyat oldida mas’uliyatni his qilishdir. Ziyolilik – faqat haqiqatni bilish emas, balki uni xalq manfaati yo‘lida ayta olishdir. Ziyolilik – faqat muammoni ko‘rish emas, balki uning yechimi uchun harakat qilishdir. Ziyolilik – faqat o‘tmish bilan faxrlanish emas, balki kelajak oldidagi burchni anglashdir. Shu ma’noda, tashkil etilayotgan Kengashning eng katta vazifasi – jamiyatimizda fikrlaydigan, tashabbus ko‘rsatadigan, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, xalq va Vatan taqdiriga daxldor ziyolilar muhitini shakllantirishdan iborat.

Albatta, agar har birimiz o‘z bilimimiz, tajribamiz va imkoniyatlarimizni birlashtirsak, jamiyatimizdagi ko‘plab muammolarga yechim topamiz. Agar har bir ziyoli o‘z atrofidagi o‘n nafar yoshga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsa, bu minglab yoshlarning hayotida ijobiy o‘zgarish yasaydi. Agar har bir ziyoli bir oilaning muammosini hal etishga ko‘maklashsa, yuzlab oilalarda sog‘lom muhit shakllanadi. Agar har bir ziyoli o‘z hududida bitta xayrli tashabbusni amalga oshirsa, butun mamlakat bo‘ylab katta ma’naviy-ma’rifiy harakat vujudga keladi.

Bugun jamiyatga aynan ana shunday harakat kerak! Zero, ziyolilari faol bo‘lgan jamiyatda ma’rifat yuksaladi, ma’rifat yuksalgan jamiyatda esa taraqqiyot mustahkam poydevorga ega bo‘ladi.

Bugun jamiyatimizda odamlarni o‘ylantirayotgan muammolar oz emas. Ba’zan odamlar ularni kimga aytishni, kim bilan maslahatlashishni bilmay qolmoqda. Xo‘sh, bunday vaziyatda xalq bilan kim gaplashadi? Albatta, davlat idoralari, ta’lim muassasalari, mahalla va jamoat tashkilotlarining bu borada o‘z vazifalari bor. Lekin bu ishlar faqat tashkilotlar faoliyati, rasmiy tadbirlar yoki hisobotlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Chunki inson qalbiga yo‘l topish uchun faqat vakolat yetarli emas. Buning uchun bilim, hayotiy tajriba, samimiyat va, eng muhimi, xalq ishonchi kerak. Bunday ishonch esa, avvalo, el-yurt orasida hurmat qozongan ziyolilarda mujassam.

Aynan shu maqsadda O‘zbekiston ziyolilari kengashini tashkil etish tashabbusi ilgari surilmoqda. Kengashni xalq bilan davlat, ziyolilar bilan jamiyat, ilm bilan hayot o‘rtasidagi mustahkam ma’naviy va intellektual ko‘prikka aylantirish maqsad qilingan. Kengash faoliyatining eng muhim jihati, u muammolarni faqat muhokama qilib qolmasdan, ularning yechimida ham bevosita ishtirok etadi. Shu bilan birga, Kengash hududlarning intellektual salohiyatini birlashtirib, amaliy tashabbuslar va yangi g‘oyalar markaziga aylanishi lozim.

Kengash jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik, o‘zaro hurmat va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashga ham xizmat qilishi zarur. Bugungi murakkab axborot davrida jamiyatning birligi, odamlarning o‘zaro ishonchi, turli qarash va fikrlarga hurmat bilan munosabatda



E’zozxon KARIMOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining birinchi o‘rinbosari

bo‘lish madaniyati nihoyatda muhim. Ziyolilarimiz jamiyatda sog‘lom fikr, xolis munosabat va konstruktiv muloqot muhitini shakllantirishda faol bo‘lishi kerak. Ayniqsa, aholi o‘rtasida turli asossiz xabarlar, noto‘g‘ri tushunchalar yoki ijtimoiy keskinlikka sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar yuzaga kelganda, ziyolilarning asosli, vazmin va ma’rifiy so‘zi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ziyolining eng katta kuchi uning lavozimida emas, balki bilimida, xolisligida, shaxsiy namunasi va xalqning unga bo‘lgan ishonchidadir.

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirish uchun Kengash faoliyatini ham yangicha yondashuv asosida tashkil etish zarur. Eng avvalo, Kengashning faoliyati rasmiyatchilikdan holi bo‘lishi shart. Bizga faqat majlis o‘tkazadigan, bayonnoma tuzadigan, yil yakunida hisobot topshiradigan tashkilot emas, xalq orasida yuradigan, muammoni ko‘radigan, uning yechimini taklif qiladigan va bu yechimning hayotga tatbiq etilishiga ko‘maklashadigan faol ziyolilar hamjamiyati kerak.

Yana bir muhim masala. Kengash faoliyati faqat hudud doirasida qolib ketmasligi lozim. Hududlarda ilgari surilgan eng dolzarb tashabbuslar, amaliy takliflar va ilg‘or tajribalar respublika darajasida umumlashtirilishi, tegishli davlat idoralari bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi zarur. Shu orqali ziyolilarimizning fikri nafaqat mahalliy muammolarni hal etishda, balki umumdavlat ahamiyatiga molik qarorlar va dasturlarni ishlab chiqishda ham muhim manbaga aylanadi.

* * *

Bugun biz yangi bir an’ananing poydevorini qo‘ymoqdamiz. Bu – ziyolilarning jamiyat hayotidagi ishtirokini yangi mazmun bilan boyitish, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini xalqimiz farovonligiga safarbar etish namunasidir. Buning uchun Kengashda har bir ziyoli o‘zini taklif etilgan mehmon emas, balki ushbu ishning bevosita tashabbuskori, uning kelajakdagi faoliyati uchun mas’ul inson sifatida his qilmog‘i lozim. Bugun tashkilotchilar faqat fikr eshitishni emas, birgalikda harakat qilishni taklif etmoqda.

Ziyolilarning hayotiy tajribasi, bilimi, xalq orasidagi obro‘-e’tibori, eng muhimi, Vatan taqdiriga befarq emasligi juda qadrli boylikdir. Undan oqilona foydalanib, shunday muhitni yaratishimiz kerakki, unda odamlar faqat o‘zining emas, balki mahallasi, shahri, viloyati va butun mamlakatining kelajagi uchun mas’uliyat his qilsin.

* * *

O‘zbekiston ziyolilar Kengashi o‘ziga bildirilgan vazifalarni – muqaddas Vataniy ishni munosib ado etar ekan, mamlakatimizda milliy yuksalish davrida “O‘Z” g‘oyasining keng quloch yozishiga, pirovardida, Yangi O‘zbekistonni bunyod etish va Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishga unutilmas hissa qo‘shgan bo‘ladi. Bu esa Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davri ziyolilari, XX asr boshida Turkiston hayotiga yorug‘ tong tilagan jadid bobolarimiz yelkasiga olgan mas’uliyatning ayni o‘zidir.

Ziyolilar safining old safida turuvchi hazrat Alisher Navoiyning o‘lmas o‘giti bu o‘rinda eng munosib ta’rif bo‘lur edi:

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf’ o‘zungga
ko‘prakdurur.

O‘ZBEK-QOZOQ MADANIY HAMKORLIGI MUSTAHKAMLANMOQDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Yurtimizda nashr etilgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” to‘plamining 10 tomi qozog‘istonlik mualliflar ijodiga bag‘ishlangan. Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasining “Turkiy olam adabiyoti” loyihasi doirasida qardosh jumhuriyatlarning o‘nlab adiblari qatorida Tog‘ay Murod, Erkin A’zam, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo‘ldoshev kabi yozuvchilarimiz, iste’dodli shoirlarimizning asarlari qozoq tilida nashr etilmoqda.



Joriy yilning sentyabr oyida Turkiy madaniyat va meros fondi, O‘zbekiston hamda Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmalari hamkorligida Toshkent shahrida tashkil etilgan “Turkiy dunyoning ma’naviy merosi: adabiyot – davrlar va avlodlar muloqoti” xalqaro forumi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Anjuman davomida ijodiy suhbatlar, mushoira va mahorat saboqlari, taqdimotlar o‘tkazildi, istiqboldagi rejalar muhokama qilindi. Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanidagi 34-umumta’lim maktabiga taniqli qozoq yozuvchisi Rahmatulla Rayimqulov nomi berilib, qiziqarli shu kunlarda tabarruk 75 yoshga to‘ldi. O‘zbekiston Prezidentining farmoniga binoan, yaxshi qo‘shnichilik, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga qo‘shgan munosib hissasi, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash borasidagi ibratli faoliyati, mamlakatlarimiz xalqlarining ko‘p asrlik do‘stligi va hamjihatligini yanada mustahkamlash yo‘lidagi ulkan xizmatlari uchun Mereke Kulkenov O‘zbekiston Respublikasining “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizning Olmaota shahridagi Bosh konsulxonasida bo‘lib o‘tgan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov Mereke Kulkenovga davlatimizning yuksak mukofotini topshirdi va Prezidentimiz tabrigini anjuman ishtirokchilariga o‘qib eshittirdi.

Mereke Kulkenov yuksak e’tibor uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevga o‘z nomidan va Qozog‘iston ijodiy jamoatchiligi nomidan chuqur minnatdorlik bildirdi.

Ma’lumki, 2026-yil 5-fevral kuni imzolangan “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Prezident qarorida mamlakatimizda va chet ellarda bu borada ilmiy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish vazifasi belgilangan. Hozirga qadar AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Estoniya kabi davlatlarda mavzuga oid ilmiy konferensiyalar, badiiy va hujjatli filmlar namoyishlari bo‘lib o‘tdi.

Sohibqiron Amir Temur tavalludining shonli sanasi munosabati bilan Olmaota shahridagi “Alatov” kinoteatrida o‘zbek kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan “Ulug‘ Amir va donna Mariya” filmi tomoshabinlarga taqdim etildi. Unda qozog‘istonlik davlat va jamoat arboblari, tarixchi olimlar, adabiyot, madaniyat va san’at namoyandalari, ommaviy axborot vositalari vakillari, shuningdek, ssenariy muallifi Xayriddin Sulton hamda kartinaning badiiy rahbari, kinorejissyor Jahongir Qosimov ishtirok etdi.

Keng ko‘lamli tarixiy va zamonaviy jarayonlarni qamrab olgan, taniqli o‘zbek va xorij aktyorlari suratga tushgan mazkur film tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Qozoq diyorida bo‘lib o‘tgan uchrashuv va muloqotlar mushtarak o‘tmish va kelajak bilan bog‘langan xalqlarimiz o‘rtasidagi madaniy hamkorlik yanada mustahkamlanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Orif ODILOV

HAMKORLIK

XALQARO MEDIAFORUM



Toshkent shahri 9-10-noyabr kunlari III O‘zbekiston–Rossiya mediaforumiga mezbonlik qildi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) va Rossiyaning TASS axborot agentligi hamkorligida tashkil etilgan anjumanda ikki mamlakat davlat organlari, vazirlik va idoralar, yetakchi ommaviy axborot vositalari hamda mediaxoldinglar vakillari, jurnalistlar, ekspertlar, shuningdek, madaniyat va kreativ industriyalar namoyandalari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamenti boshlig‘i – Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘z nutqida davlatlararo munosabatlarning rivojlanishida oliy darajadagi muntazam muloqotlar muhim o‘rin tutishini qayd etib, Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putinning o‘zaro ishonch va do‘stlikka asoslangan muloqoti hamkorlikning barcha yo‘nalishlari, jumladan, media va kommunikatsiyalar sohasidagi aloqalarga ham yangi sur’at bag‘ishlayotganini ta’kidladi. Tadbirda so‘zga chiqqan O‘zA bosh direktori Abdusaid Ko‘chimov, TASS bosh direktori Andrey Kondrashov va boshqalar tomonidan jadal o‘zgarib borayotgan axborot makonida ikki mamlakat media hamjamiyatlari o‘rtasidagi kasbiy aloqalarni mustahkamlash, raqobatdosh milliy kontent yaratish, tajriba almashish hamda istiqbolli qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha muhim fikrlar bildirildi.

Forum dasturidan o‘rin olgan to‘rtta panel sessiyada zamonaviy jurnalistika oldida turgan dolzarb vazifalar, raqamli transformatsiya sharoitida axborot iste’moli madaniyatining o‘zgarishi hamda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o‘rni atroflicha muhokama qilindi. Dastlabki sessiyalarda turizm, sport va gumanitar almashinuvlarni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlariga e’tibor qaratildi. Keyingi muhokamalarda kontent yaratish va uni auditoriyaga yetkazishning zamonaviy texnologiyalari, xususan, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Raqamli platformalar axborot tarqatish tezligini oshirish bilan birga, jurnalistlar zimmasiga yangi mas’uliyat ham yuklamoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan materiallarning haqqoniyligini aniqlash, axborot manbalarini tekshirish va tahririyat mas’uliyatini kuchaytirish masalalari dolzarb ekani qayd etildi. Yana bir sessiyada O‘zbekiston va Rossiyada axborot iste’moli madaniyatining o‘zgarishi, an’anaviy ommaviy axborot vositalarining zamonaviy media makonidagi o‘rni hamda raqamli platformalar rivojining jurnalistikaga ta’siri muhokama qilindi. Bugungi auditoriya axborotni turli manbalardan olayotgan bir sharoitda professional jurnalistikaning asosiy ustunligi ishonchlilik, xolislik va voqeahodisalarni chuqur tahlil qilish bilan belgilanayotgani ta’kidlandi.

Forum davomida bildirilgan fikrlar va ilgari surilgan tashabbuslar zamonaviy jurnalistikaning vazifalari tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bugun media nafaqat axborot yetkazuvchi, balki mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi, tarixiy xotirani saqlovchi, madaniyatlararo muloqotni rivojlantiruvchi va yangi avlod dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatuvchi institutga aylanmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jadal rivojlanayotgan bir davrda jurnalistikaning asosiy mezonlari – haqqoniylik, xolislik, mas’uliyat va kasbiy mahoratni saqlab qolish har qachongidan ham muhimdir.

Abbos SHOYIMOV

TADQIQOT-ROMAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Chunki ijodiy-ilmiy salohiyatdan tashqari, katta tarixiy material zaxirasi, davlat arxivi va shaxsiy hujjatgohlar, muzeylardan hamda boshqa rasmiy-norasmiy manbalardan jamg‘arma yaratish, uning erkin tasarrufiga ega bo‘lish har kimga ham nasib etavermaydi.

“Yaldo kechasi” romani – zamonaviy o‘zbek romanchiligida novatorlikdir. Novatorlik – yangicha yo‘nalish yaratish, yangicha shakl va mazmun bunyod etish demakdir. Adabiyotimizda shu paytgacha bir yozuvchi boshqa bir yozuvchining yo‘nalishini qayta kashf etib, yangi yo‘nalish sifatida maydonga olib chiqishi hodisasi borligini bilmayman. “Yaldo kechasi” romanida birinchi o‘zbek milliy romani muallifi Abdulla Qodiriyning o‘ziga xos romanchilik yo‘nalishi qaytadan kashf etilib, yangi yo‘nalish sifatida davom ettirilgan. Shu paytgacha milliy adabiyotimizda hech bir yozuvchi boshqa yozuvchi romandagi syujet, obrazlar tizimi, konfliktlari, g‘oyaviy-badiiy nuqtayi nazari, badiiy til va uslubini aynan – qanday bo‘lsa – shunday davom ettira olmagan bo‘lsa kerak.

“Yaldo kechasi” romanida “O‘tkan kunlar” romanidagi badiiy syujet takomillashtirilgan, obrazlar shajarasi rivojlantirilgan – bosh qahramon Otabek va uning ota-onasi, Kumushbibining ota-onasi hayoti davom ettirilgan. Otabekning o‘g‘li Yodgorbekning hayoti, Yodgorbekning o‘g‘illari Ozodbek va Odilbeklarning qismati qalamga olinib, badiiy aks ettirilgan. Bu – shunchaki mantiqiy davom emas. “O‘tkan kunlar”da boshlangan ijtimoiy hayot, undagi ziddiyatlarning o‘ta keskinlashuvi, chor hukumati imperiyasining mahalliy aholiga zulmi, bolsheviklar harakatining boshlanishi va g‘alabasi, xalqning ikki tomonlama zulm ostida ezilishi, jadidlik harakati, bosmachilik deb badnom qilingan milliy ozodlik harakati, sovet missionerligining makkor siyosati, aldangan avlodlar qismati tarixiy hujjatlar va badiiy to‘qima asosida juda ishonarli hamda ta’sirli tasvirlangan. Ushbu ijtimoiy-siyosiy talotumlar, oktyabr inqilobi, davlat va jamiyatning buqalamunligi oqibatida Otabek va uning shajarasi qurbon bo‘ladi. Shularga ko‘ra, bu yangi romanni “O‘tkan kunlar” romanining davomi sifatida qabul qilish mumkin. “Yaldo kechasi” romani o‘zbek adabiyotida ko‘pdan beri kutilgan yangi badiiy kashfiyotdir.



Nusratullo JUMAXO‘JA, filologiya fanlari doktori, professor


“Yaldo kechasi” romani – Xayriddin Sulton ijodining cho‘qqisidir. Katta yozuvchining ijodida cho‘qqilar ko‘p bo‘ladi. Hali bu ulug‘ yozuvchimizning ijodida yana yangi cho‘qqilar paydo bo‘lishidan umidvormiz. Biz “Yaldo kechasi” yozuvchining hozirgacha yaratgan asarlari orasida eng baland cho‘qqi, degan fikrdamiz. “Yaldo kechasi” romani mustaqillik davri, XXI asr boshlari o‘zbek nasriy adabiyotining ham eng yaxshi asarlaridan biri desak, yanglishmaymiz. Chunki shu davrda yaxshi-yaxshi romanlar yaratilgan bo‘lsa-da, ularning badiiy mazmun salmoqdorligi, mundarijaning keng qamrovliligi, badiiy tasvir hamda til va uslub tarovati bilan “Yaldo kechasi” boshqa, boshqachadir.

Asarda juda go‘zal, jozibali, qodiriyona til va uslub yaratilgan. Tarixiy asar yaratish – tarixiy til yaratishni ham taqozo etadi. “Yaldo kechasi”da “O‘tkan kunlar” romanidagi tarixiy til va uslub me’yorlari qayta kashf etilgan. Qodiriy qanday vazmin, go‘zal, jozibali, shirali tilda so‘zlagan bo‘lsa, Xayriddin Sulton ham mana shu jozibadorlikni to‘laqonli o‘zlashtirgan. Qodiriy mumtoz tilining salmoqdorligi, serhashamligi, maqol-matallarga boyligi, turkiy-forsiy-arabiy so‘z-iboralarni omuxta qilib shiravorlashtirish, hatto, “O‘tkan kunlar”dagidan ham ko‘proq oyat va hadislarni juda o‘rinli qo‘llash asardagi yuksak badiiy mahoratni ta’minlagan. O‘ylaymiz va umidvormizki, bu asar xalqimizning sevimli kitobiga aylanadi hamda u kelajakda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga obyekt bo‘lib xizmat qiladi, yosh o‘zbek kitobxonlariga milliy tarixni bilish, o‘zlikni anglashda yaqin ko‘makdosh bo‘ladi.

QARDOSHLIK

ANQARADA ADABIYOT BAYRAMI


O‘zbekiston Qahramonlari, xalq shoirlari Erkin Vohidovning “So‘z latofati” hamda Abdulla Oripovning “Saylanma”si TURKSOY tashkiloti tomonidan ilk bor turk tilida chop etilgani turkiy olam adabiy hayotida muhim voqeaga aylandi. Bu xayrli tashabbus o‘zbek adabiyotining ikki porloq yulduzi, azim chinori, teran daryosi bo‘lgan shoirlarning 90 hamda 85 yillik yubileyiga o‘ziga xos tuhfa bo‘ldi. Shu munosabat bilan Anqara shahrida fotoko‘rgazma va kitoblar taqdimoti bo‘lib o‘tdi.



Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Millat kutubxonasi mezbonlik qilgan anjumanda TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, O‘zbekistonning Turkiyadagi Favqulodda va muxtor elchisi Ilhom Haydarov, O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillari, olimlar, adabiyot ixlosmandlari hamda ulug‘ adiblarimizning oila a’zolari ishtirok etdi.

Tadbirda kitoblarni tarjima qilish va nashrga tayyorlashda qardosh mutaxassislar hamjihatlikda mehnat qilgani alohida ta’kidlandi. Xususan, O‘zbekistonning TURKSOYdagi vakili, bu xayrli ishga mas’ul bo‘lgan Shavkat Ortiqov, “So‘z latofati” tilmochlari Avazxon Umarov, Jihangir Demir, “Saylanma” tarjimonlari Xayrulla Hamidov, Ma’rufjon Yo‘ldoshev, Huseyin Baydemir, Saidbek Boltaboyev, Avazxon Umarov va Hulya Ergenening zahmatli va sharafli xizmatlari olqishlandi.

Ijodkorlarni ushbu loyihaga ilhomlantirgan omil – so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Turkiya davlatlari rahbarlarining do‘stona munosabatlari, keng qamrovli strategik hamkorligidir. Tantanali tadbir muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Men Erkin Vohidovdek serqirra iste’dod egasi, haqiqiy vatanparvar va millatparvar inson bilan zamondosh va maslakdosh bo‘lib yashash nasib etganidan baxtiyorman”, “Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga ko‘targan nodir iste’dod sohibi edi. Uning yuksak badiiy, teran falsafiy she’rlari xalqimiz ko‘nglidan chuqur joy olgan. Dramatik va publitsistik asarlari, doston va tarjimalari adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan”, degan so‘zlari



bilan ochilishi ham bejiz emas. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning Toshkent va Anqarada o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvlarda “O‘zbekiston” she’ri va “O‘zbegim” qasidasidan parchalarni yoddan o‘qishi xalqimiz tomonidan qizg‘in kutib olingani ham yodimizda.

Darvoqe, har ikki shoir ijodida Turkiya o‘ziga xos o‘rin egallagan. Erkin Vohidovning insoniyat qayg‘usi, Vatan tuyg‘usi kuylangan dramasi “Istanbul fojiasi” deb atalgan bo‘lsa, Abdulla Oripovning “Everest va ummon” to‘plamiga kirgan she’rlarining salmoqli qismiga aynan Onado‘li diyori ilhom bag‘ishlagan. Shu ma’noda, yangi kitoblarning Anqarada taqdim etilishi mantiqiylik kasb etadi. Mazkur adabiyot bayramida o‘zbekistonlik san’atkorlarning ustoz ijodkorlar qalamiga mansub qo‘shiqlardan tayyorlagan konsert dasturi ham taqdim etildi.

Zikrilla MUHAMMAD

INSON QADRI

KECHA va BUGUN



YAQIN O‘TMISHDAN “ERTAK”LAR

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, inson qadrini e’zozlashga qaratilgan ezgu va oliyjanob ishlar hammaning tilida, dilida. Kuni kecha ham shunday bo‘ldi – bir davrada bugungi o‘zgarish va yangilanishlar xususida so‘z ketdi. Har kuni bir yangilik, har kuni bir yengillik bo‘layotgani suhbat mavzusiga aylandi. Gurungda yosh do‘stlarimiz ham bor edi. Biz bo‘rttirmay, ro‘yirost aytayotgan yaqin tariximiz, kechagi kunimiz haqidagi xotiralar ularga xuddi ertakday tuyulayotganini sezdim. Asoslab tushuntirsak, ularning gapi shu bo‘ldiki: “Ha, endi, biz u davrlarni ko‘rmaganmiz, shuning uchun bilmaymiz”...

Hazrat Alisher Navoiy “Munshaot”-da: “Bitib erdingizkim, Mirzo tobug‘ida kamina qulni yod qilib yig‘larmen. Yod qiluringizg‘a rozimen, yig‘laringizg‘a yo‘q”, deb yozganiday, biz xohlaymizki, yoshlarimiz u kunlarni ko‘rmasin, lekin bilmasligi mumkin emas. “Ertasini o‘ylagan indin bo‘lmas pushaymon”, degan naql bor xalqimizda. Lekin erta – bugun bilan, bugun esa kechagi kun bilan bog‘liq. Bugunning qadriga yetish, islohotlar mohiyatini anglash uchun ham kechagi kunni unutmaslik kerak.

Bir cho‘pni boshqa joyga olib qo‘yish uchun ham harakat kerak. Shunday bo‘lgach, butun boshli mamlakat hayotini o‘nglash, jamiyat hayotida tub islohotlarni amalga oshirish, odamlar dunyoqarashini yangilash qanchalik mashaqqatli va mas’uliyatli vazifaligini tasavvur qilavering. Bir o‘ylab ko‘raylik, islohot nima uchun qilinadi? Albatta, qayerdaki ishlar ko‘ngildagiday ketmayotgan bo‘lsa, o‘sha joy islohga muhtoj bo‘ladi. Xuddi shu nuqtada Yangi O‘zbekistondagi islohotlar inson qadrini yuksaltirishdan – qaddini tiklashdan boshlanganining mohiyati oydinlashadi.

Haqiqat qiyosda ko‘rinadi. Bugungi islohotlar ham kecha va bugun tarozisiga solib ko‘rilsa, uning samarasi yanada aniqroq namoyon bo‘ladi.

PAXTAGA QUL BO‘LGAN EL MUSTAQIL BO‘LA OLADIMI?

Kecha. Bolaligim G‘allaorol tumanining tog‘li Avliyoota qishlog‘ida o‘tgan. Tumanimizda paxta ekilmaydi. To‘g‘rirog‘i, bir paytlar ekilgan ham, lekin vegetatsiya davri yetishmagani uchun paxta pishmay qolgan. Hali ochilmagan ko‘saklar terilib, o‘t yoqib quritilgan, so‘ng tolasi archib olingan. Qishloq etagida yashnab turgan qalin tabiiy chakalakzor shu maqsadda o‘tinga kesilib, yo‘q bo‘lib ketgan. Keksalar chakalakzor juda katta, ichida yovvoyi hayvonlar ko‘p bo‘lganini eslaydi. Tabiatning shunday ne’mati paxta uchun g‘orat qilingan.

Xullas, o‘zimizda paxta bo‘lmagani uchun uzoq cho‘l tumanlariga terimga olib ketishardi. 7-sinfdan boshlab paxtaga borganmiz. Hozir 7-sinf o‘quvchilarining bo‘y-bastiga qarab, ishonmayman, nahotki, shunday norasida paytdanoq bolalarni ota-onasidan, oilasidan ayirib, biyday dalaning o‘rtasidagi pilla boqishga mo‘ljallangan barakda, ikki qavatli taxta so‘rida ikki-uch oylab yotqizish, noyabr oxirigacha yo‘q paxtani izlab, egat oralab sarson-sargardon kezdirish mumkin?

Bizdan oldinroq paxtaga borganlar – aka-opalarimiz to‘qigan bir she’r mashhur edi:

Obkomimiz Toirov,
Enamizdan ayirib,
Opketadi paxtaga,
Yotqizadi taxtaga...

Bisotimiz bir ko‘rpa-yu bir yostiq, bir tunuka kosa-yu krujka edi. Yeganichganimiz ertalab buxanka non bilan shakar choy, tushlik va kechga makaron sho‘rva edi. Terim tugab uyga qaytgach, ho‘, Yangi yil bayramiga yaqin “paxtaning puli kelarkan”, degan xushxabar tarqalardi. Lekin pul kelgach, aksariyat bolalar terim uchun pul olmasdik, aksincha, yegan ovqatimizga qarz bo‘lib qolganimiz ma’lum bo‘lardi.

Endi o‘ylasam, qul kabi ishlagan ekanmiz. Mana shu ikki-uch oy oralig‘ida hammom ko‘rmagan, sovuqdan qo‘llari yorilib ketgan bolaligimni har gal eslaganimda, ko‘nglimda achchiq achinish hissi uyg‘onadi.

Afsuski, mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan so‘ng ham paxtaga qul bo‘lib qolaverdik. O‘quvchilar-u o‘qituvchilar ham, talabalar ham, tashkilotlar ham Mustaqillik bayramini o‘tkaziboq, paxtaga “oshiqardi”. Buni hammamiz yaxshi eslaymiz.

Bugun. Bu yil noyabr oyi boshida Yangi O‘zbekiston tarixida ilk bor dehqon va fermerlarimiz 5 million tonnadan ziyod yuksak paxta xirmoni bunyod etib, rekord natijani qo‘lga kiritdi.

To‘g‘risi, xalqimizning katta qismi bunday tarixiy natijani e’lon qilinganidan so‘nggina bildi. Chunki, paxta avvalgidek umumxalq ishi emas, uning o‘z egalari bor va ular o‘z ishini qilmoqda. Holbuki, ilgari har bir oiladan kimdir, albatta, paxtaga ketgan, shuning uchun hammaning e’tibori terim ma’lumotlarida bo‘lardi.

Xo‘sh, bu yuksak xirmonga qanday erishildi? Boz ustiga, yurtimizda keyingi yillarda paxta maydonlari 38 foizga qisqargan, paxta monopoliyasiga barham berilgan, o‘qituvchilar, o‘quvchi va talabalar, byudjet tashkilotlari xodimlarini terimga jalb etish qat’iyan to‘xtatilgan bo‘lsa? Demak, bo‘lar ekanda!

“Jadid” gazetasining oldingi sonida e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri, akademik Ibrohim Abdurahmonovning mavzuga oid maqolasida bu muvaffaqiyat sirlari chuqur ochib berilgan. Ma’lum bo‘ladiki, avval faqat qora mehnat qilingan, endi har bir sohaga aql va innovatsiya bilan yondashilmoqda. Ilm-fan yutuqlari va zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilayotgani natijasida paxtachilikda hosildorlik 2,7 karra oshib, 21 sentnerdan 56 sentnerga yetgani, hatto ilg‘or fermerlarimiz 100-110 sentnergacha hosil olayotgani shundan dalolat beradi.

Muhtaram Prezidentimizning soha xodimlariga yo‘llagan tabrigida ta’kidlanganidek, “tanlagan yo‘limiz naqadar to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi, bu yilgi natijalarimiz yaqqol tasdiqlamoqda”.

“OLIMPIADANGNI YIG‘ISHTIR, KO‘CHANI TOZALA!”

Kecha. Gap avvallari urf bo‘lgan hashar kampaniyalari, majburiy mehnat haqida borar ekan, cho‘l tumanlaridan birida bo‘lgan yana bir voqeani aytib o‘tay. Faol va tashkilotchi bir do‘stim shu tumanda maktab rahbari edi. Maktabida yaxshi natijalarga erishgani uchun o‘sha vaqtda xalq ta’limi vazirligining tavsiyasi bilan tuman xalq ta’limi bo‘limi mudirligiga tayinlandi. U o‘z maktabida orttirgan tajribasini endi tuman miqyosida qo‘llay boshladi. Samara tez orada ko‘rindi. Tumanning uch-to‘rt nafar o‘quvchisi turli fan yo‘nalishlarida viloyatda g‘olib bo‘lib, respublika bosqichiga yo‘llanma oldi.

Albatta, viloyat g‘olibligi ham bu tuman uchun dastlabki yutuq edi. Shu bois, do‘stim g‘olib o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida yelib-yugurib, homiy topib, zo‘rg‘a uch-to‘rtta kichik sovg‘alar uyushtiradi. Tuman hokimining nomidan o‘quvchilarga tashakkurnoma tayyorlatadi va ularga imzo qo‘ydirish hamda yutuqlardan boxabar qilish uchun hokim huzuriga kiradi. Ming afsus, hokimning kayfiyati yo‘q ekanmi, tashakkurnomaga imzo qo‘yishni istamaydi. Xalq ta’limi bo‘limi mudiri qaytanga gap eshitib chiqadi. “Olimpiadangni yig‘ishtir, boshimni qotirma, bor, o‘qituvchilaringni opchiq, ko‘chani tozala!”, deydi hokim.

Shundan so‘ng do‘stimning hafsalasi pir bo‘lib, ariza yozib ishdan bo‘shab ketdi. “Eng yomoni, bilasizmi, nima? – dedi keyin do‘stim. – O‘qituvchilar xonadonlardagi hojatxonalardan dalaga o‘g‘it chiqarishga ham majbur edi. Ular o‘z puliga texnika topib, shu ishning tepasida turardi. O‘z o‘quvchilarining ko‘zi o‘ngida odamlarning hojatxonalarini tozalab yurgan ustozning hurmati bo‘ladimi?”

Bugun. Endi turli bellashuvlarda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarini rag‘batlantirish uchun ustozlarning yelib-yugurishiga, rahbarlarning qabulida sarg‘ayib, ularga mute’ bo‘lib o‘tirishiga aslo hojat yo‘q. Fan olimpiadalarining tuman, viloyat va respublika bosqichlarida g‘oliblikka erishgan o‘quvchilarni, nafaqat, o‘quvchilar, ayni paytda, ularni tayyorlagan ustozlarini ham rag‘batlantirishning aniq mexanizmlari ishlab chiqilgan. Xalqaro olimpiadalar g‘oliblarini-ku, alohida mukofotlar kutib turibdi.

Faqat o‘qituvchilar emas, barcha sohalar xodimlari ham majburiy mehnatdan to‘la xalos bo‘lgan. Maktab o‘qituvchilari daromadini izchil oshirib borish doimiy e’tiborda turibdi. Birgina misol. Bu yil yangicha formatda o‘tkazilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovining 208 nafar tuman va shahar bosqichi g‘oliblarining har biriga ilk bor 616 million so‘mdan mukofot berilganining o‘ziyoq, jamiyatimizda o‘qituvchilik kasbining nufuzini keskin oshirib yubordi, desak, buyam adolatdan bo‘ladi.

KO‘CHADA QOLGAN AKADEMIKLAR

Kecha. Yurtimizdagi nufuzli oliy ta’lim dargohlaridan biriga rahbarlik qilgan hurmatli domlamiz shunday hikoya qiladi: “Orada shunday zamon bo‘ldiki, 60 yoshdan oshganlaridan keyin, hatto, akademiklar ham nafaqaga chiqarib yuborildi, ular ko‘chada ishsiz qoldi. Ularning ilmiga ham, faoliyat yuritib kelayotgan ilmiy muassasalariga ham ishonchsizlik bildirildi. Qanday ulug‘ olimlarimiz, ustoz akademiklarimiz ichkariga kirishga yuragi betlamay, universitet atrofida aylanib yurganlarini ko‘rib, ichim ezilgan. Shundan so‘ng, ishdan bo‘shatilgan akademiklarni chaqirib, ularga kabinet qilib berganman. Buyuk ustozlari, o‘zlari foydalangan stol-stullargacha toptirib, shu kabinetga qo‘yganman ham. Shu ishimdan hozirgacha qanoat his qilaman”.

Bugun. Katta hayotiy tajribaga ega insonlarning jamoada bo‘lishi har bir tashkilot uchun muhim. Ularga maosh ham, pensiya ham to‘liq beriladi. Akademiklarimizga ko‘rsatilayotgan yuksak e’zoz-ehtirom, o‘z navbatida, ilm-fan ravnaqiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini kuzatyapmiz.

O‘zbekistonda Fanlar akademiyasiga saylovlar qayta tiklandi. Akademiklarning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish, ularni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimli asosda yo‘lga qo‘yildi. Ularga o‘z ixtisosliklari bo‘yicha ishlashlari uchun ustuvor sharoitlar yaratilgan. O‘zlari va oila a’zolariga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatiladi. Davlat hisobidan yiliga bir marta tibbiy sog‘lomlashtirish maskanlariga va sanatoriylarda dam olish yo‘llanmalari bilan ta’minlanmoqda.

O‘Z YURTI VA O‘Z UYIGA SIG‘INDI BO‘LGANLAR

Kecha. Propiska tizimi jamiyatning eng og‘riqli nuqtalaridan biri edi. Davlatning o‘z xalqiga nisbatan mehri yoki ishonchi emas, shubhasi bor edi, desak, buyam ayni haqiqat. Har bir viloyat tugul, tumandan tumanga o‘tishda ham postlar qo‘yilgan, yoningizda pasportingizni olib yurmasangiz, tayyor jinoyatchiga aylanib qolishingiz hech gap emasdi. Hatto, tumanlardagi davlat idoralari ham baland temir panjaralar bilan xalqdan ajratib qo‘yilganini yaxshi eslaymiz.

Yuksak maqsadlarni ko‘zlagan har bir inson, albatta, o‘z mamlakatining poytaxtiga intilishi tabiiy jarayon. Lekin bu yerda ham juda katta to‘siqlar bor edi. Avvalo, propiskangiz bo‘lmasa, ishga ham joylasha olmasdingiz, uy olishga ham haqqingiz yo‘q edi.

Shaxsan o‘zim misolimda aytsam, poytaxtda ishlash uchun Bo‘stonliq tumaniga propiska qilib kelishga majbur bo‘lganman. Tag‘inam, ishlayotgan tashkilotim rahbarining bag‘rikengligi bilan shunga ijozat tekkan, bo‘lmasa, Bo‘stonliqning propiskasi bilan ham ishga olish mumkin emasdi. Toshkentdan uy ololmay, naq to‘rt yil Chirchiq shahridan qatnab ishlaganimni eslasam, hozir ham o‘zimga, oilamga rahmim keladi. O‘n yillar yemay-ichmay, uy olish uchun yig‘inganmiz. Nihoyat, qarz-havola bilan bir xonali uyga yetishganmiz. Yana deng, uyni o‘z nomimga emas, propiskasi bor baxtli tanishimning nomiga olganman. Uy o‘zimniki, lekin birovning nomida. Aynan propiskamiz yo‘qligi uchun farzandlarimni bog‘chaga, maktabga joylashda ko‘rgan qiyinchiliklarimni aytmay. Bir hamkasbimizning propiskasi tugul, fuqaroligi ham yo‘q edi. Endi, uning ko‘rgan qiyinchiliklari oldida, bizniki – holva.

Birovning nomiga uy olgan, keyin uni sotmoqchi yoki almashtirmoqchi bo‘lganida, uyning soxta “ega”si uyga da’vo qilib chiqqan holatlar ham ko‘p edi. Odamlar olgan uyining yana yarim miqdorida narxini “berib”, ya’ni yo‘lini qilib, propiskasini to‘g‘rilab olganlarini eshitardik.

Orada qishloqdan keladigan qarindoshlarning qadami uzilib qolsa, deng. “Nega bormaysizlar?”, desam, “Metroga tushsak, melisa ushlab, pulimizni olib qo‘yadi”, derdi ular...

Bugun. Davlat nafaqat o‘z xalqiga ishonadi, balki shu xalq uchun xizmat qiladi. Faqatgina ichki yo‘llar emas, necha yillardan beri yopilib, qarindosh-urug‘ni bir-biridan uzib qo‘ygan tashqi yo‘llar ham ochildi. Davlatning ishonchi shu darajadaki, hatto adashgan fuqarolarga ham ikkinchi imkon beradi. Jahonning qaysi bir olovli hududida qolib ketgan fuqarolarini ham Vatanga qaytarib olib keladi. Bu operatsiyalarning “Mehr” deb atalishi ham bejiz emas.

Uy olaman, desangiz, marhamat, butun uyning pulini yillab yig‘ib o‘tirmaysiz, o‘z xohishingiz va imkoniyatingizga qarab uy tanlaysiz, boshlang‘ich to‘lovni qilib, qolgan mablag‘ni bo‘lib to‘lash imkoniyati yaratilgan. Poytaxtda ishlamoqchimisiz, marhamat, propiska so‘raydigan zamonlar o‘tib ketgan. O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishning xabardor qilishga asoslangan yagona tartibi amal qiladi.

Darvoqe, fuqaroligi yo‘q boyagi hamkasbimiz keyingi davrda birinchilardan bo‘lib fuqarolik olganini ham aytib o‘tay. Uning yillar davomida yetisha olmagan orzusi ushalgan o‘sha onlardagi xursandligi va hayajonini tasvirlab bera olmayman.

“BO‘SHALSA O‘ZADI O‘ZBEKNING OTI”

Yuqorida yo‘lini qilib, propiskasini to‘g‘rilab olgan odamlar haqida gapirdik. Fikr qilib ko‘raylik, korrupsiya qayerda paydo bo‘ladi? Albatta, o‘zi uchun qulay muhitda – to‘siq bor joyda tug‘iladi va rivojlanadi-da.

Bugun korrupsiyaga qarshi kurash-yapmiz, buning uchun barcha sohalarda korrupsiyaga olib keladigan vaziyatlarga barham berilmoqda. Deyarli barcha yo‘nalishlarda, ayniqsa, tadbirkorlik borasida xabardor qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgani, albatta, odamlarga qulay sharoit yaratadi, ayni paytda, hech shubhasiz, bu – korrupsiyani yo‘qotadigan eng samarali usullardan biridir.

Biz bu o‘rinda jamiyatimiz hayotida yuz bergan tub yangilanish va o‘zgarishlarga qisman to‘xtaldik va ayrim misollar keltirdik, xolos. Bular osmondan olingan gaplar emas, har birimizning boshimizdan o‘tgan voqealardir. Xalq dardini eshitish yo‘lga qo‘yilgani deysizmi, jamiyatda erkinlikka yo‘l ochilganini aytasizmi, kambag‘allik haqida ochiq gapirilib, kambag‘allikni tugatish bo‘yicha jiddiy harakatlar bo‘layotgani yoki naqd pul, valyuta siyosatidagi o‘zgarishlarni aytasizmi, yoshlarga keng yo‘l ochilayotganini deysizmi, eh-he, sanab sanog‘iga yetish qiyin. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni tizimli va batafsil yoritib berish uchun butun boshli institut ishlasa ham arziydi, aslida. Balki shunday qilish ham kerakdir.

Mashhur dostonimizda “Bo‘shalsa o‘zadi o‘zbekning oti”, degan barchamizga g‘urur beradigan so‘zlar bor. Bugun xalqaro maydonda “Yangi O‘zbekiston modeli” namuna sifatida e’tirof etilmoqda, o‘rganilmoqda. Davlatimiz tomonidan yuritilayotgan oqilona siyosat va xalqchil islohotlarning eng muhim xislati – yuksak maqsadga yo‘naltirilgani, aniq rejaga asoslangani, izchil va davomiy xarakterga egaligi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: **“O‘z” degan ezgu g‘oyamiz zamirida mujassam bo‘lgan o‘z ishimiz, o‘z so‘zimiz, o‘z g‘alabamizga ishonch ruhi bilan olg‘a qarab borishdan hech qachon to‘xtamaymiz!”**, degan so‘zlarida yorqin namoyon bo‘ladi.

Ikrom BO‘RIBOYEV

KUZATUV

OG‘RIQ NUQTA

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimizda o‘rta hisobda kuniga 137 ta oila rasman ajrashmoqda. Shuningdek, joriy yilning birinchi yarmida 24 ming 815 oilaning nikohi qonunan bekor qilinib, o‘tgan yilning shu davriga ko‘ra bu raqam 6,3 foizga ko‘paygan.

Bu sanoq faqat ajrimgagina oid, uning oqibatida ma’naviy-ruhiy jabr ko‘rgan bolalar va ular chekayotgan iztiroblar adadi faqat Yaratganga ayon. Dunyoviy jinoyat turlarini o‘rganuvchi mutaxassislarning aniqlashicha, otasi yo onasi olamdan o‘tishi sababli yetim qolgan bolalarga nisbatan ota-onasining ajrashishi oqibatida tirik yetim bo‘layotgan bolalar ichida jinoyatchilar bir necha barobar ko‘p ekan. Ota-onaning ajrashishi bolaning bilim olishga qiziqishini pasaytirishi ham aniqlangan. Bolalar ajrim yukini yoshiga qarab turli darajada qabul qilishadi. Ya’ni, to‘rt yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar ajrashishda o‘zlarini aybdor hisoblab o‘ssa, o‘smirlar o‘zlarini voz kechilgan sanashar ekan.

Garchi oila birligini saqlashga munosabat har kimning shaxsiy masalasi bo‘lsa-da, u jamiyat barqarorligiga ta’sir qiladi. Chunki oiladagi kelishmovchilik va ziddiyatlar avlod kelajagiga katta bosim o‘tkazadi. Shu bois, oila masalasi hamisha davlat siyosati darajasidagi masaladir. Bu borada Respublika Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirib kelayotganini ta’kidlash joiz. Xususan, qo‘mitaning Ayol.gov.uz platformasidagi “Oila profili” moduliga joriy yil 12-oktyabr holatiga ko‘ra ma’lumotlar kiritilgan. Unga ko‘ra, mahallalarda xotin-qizlar faollari tomonidan barvaqt aniqlangan 41 ming 804 ta ajrim yoqasidagi nizoli oila bilan manzilli ishlash natijasida, hozirgacha ularning 34 ming 871 tasi yarashtirilgan.

– Mahallalarning eng og‘riq nuqtasi mana shu ajrim masalasi, – deydi Yashnobod tumanidagi Amir Temur nomidagi mahalla raisi Feruza Tosheva. – Ba’zi oilalar bor, ajrashtirmaslikning iloji yo‘q. Lekin ular ajrashsa ham, bolalari uchun ota-onalikni saqlashsa bo‘ladi-ku. Aksariyat ota-onalar ajrim ortidan farzandlarini ham ziddiyatga aralashtiradi. Dunyoda hamma xatti-harakatning etikasi bor, hatto ajrashishning ham. Avvalo, biror oilaning bo‘linishini istamayman, lekin boshqa yo‘l qolmaganda ham, masala urush-janjal, haqoratlarsiz hal qilinsa, deyman. Chunki ajrim masalasidagi mojarolar juda charchatib yuboradi. Hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib o‘tirgan, shu muhitda yashashga mahkum bo‘lgan bolalarga achinib ketasan odam ...

Har qanday holatda ham kattalar uchun bolalarning xavfsizligi va ruhiy xotirjamligi hamma narsadan muhim bo‘lishi kerak. Bolalar har doim haq tomonda bo‘ladi. Shuning uchun oilaviy nizolarda erkak ham, ayol ham jabrdiydalik to‘nini kiyib, boladan foydalanmasligi kerak.

– Ota-onam kichkinaligimda ajrashib ketishgan, – deydi sirdaryolik



talaba qiz Fazilat. – Otamning oldiga borsam – onamni, onamning oldiga qaytsam otamni gapirishardi. Ikki marta o‘zimni o‘ldirmoqchi ham bo‘lganman. Chunki onam otam aytganday emasdi. Hokisor edi u. Onam haqida yomon gap aytmanglar, demoqchi bo‘lardim-u, qo‘rqardim. Hozir otamnikiga bormayman, zaharlangim kelmaydi...

Bu suhbatni uzoq davom ettirish mumkin edi. Turfa taqdirlar... Turli sabablar... Ammo azobi, dardi, alami bir xil... Boshqacha aytganda: “Yeganin osh demang...”

Muhayyo RUSTAMOVA

KUN MAVZUSI

UYLAR SOYASIDA QOLAYOTGAN SAVOLLAR



O‘tgan oyda Toshkent shahrida arxitektura organlarining ruxsatisiz 720 dan ortiq ko‘p qavatli uy qurilgani haqida xabar tarqaldi. Unga Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri Sherzod Hidoyatovning Qonunchilik palatasidagi “Hukumat soati”da bergan javobi asos bo‘lgan. Vazirlik 22-oktyabrdagi rasmiy tushuntirishida bunday ko‘p qavatli uylar soni 61 ta ekanini bildirdi. O‘tkazilgan tekshiruvlarda 320 dan ortiq noqonuniy obyekt aniqlangan, bu hisobga yakka tartibdagi uylar, do‘konlar va boshqa kichik inshootlar ham kirgan.

Majlisda deputat Dilmurod Ismoilovning bolalar va sport maydonchalari, avtoturargohlar uchun joy qoldirilmayotgani, loyihadagi infratuzilma qurilmayotgani haqidagi so‘ziga qurilish vaziri bosh reja tasdiqlanishidan avval auksionga qo‘yilgan yerlarda uylar qurilganini, nazorat kuchaytirilib, jarayonlar raqamlashtirilgach, ruxsatsiz qo‘shimcha binolar qurish to‘xtatilganini aytib, javob qilgan.

Ko‘p qavatli uy bir kechada paydo bo‘lib qolmaydi. Bu jarayon shahar ahlining ko‘z o‘ngida kechadi. Vazirning ma’lum qilishicha, bu kabi muammoli obyektlar bilan Bosh prokuratura shug‘ullanmoqda. Zarur infratuzilma yaratilgan taqdirda, uylarni foydalanishga qabul qilishni nazarda tutuvchi qaror loyihasi tayyorlangan. Binolar mustahkamligini maxsus asboblar yordamida tekshirish ham ko‘zda tutilgan.

Yechimning muhandislik xulosasi bilan bog‘lanayotgani, albatta, yaxshi. Chunki, 61 ta uyning har biri ortida qancha oilalar taqdiri bor. Ular uchun binoni foydalanishga qabul qilish, mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish va xavfsiz yashash imkoni bir-biriga bog‘liq. Hozircha qaror loyihasi haqida so‘z bormoqda, bu bosqichlarning har biri o‘z huquqiy asosiga ega.

Qolaversa, ruxsatnomaning yo‘qligi binoning, albatta, xavfli ekanini bildirmaydi. Ruxsatnomasi bor uyda ham nuqson uchrashi mumkin. Huquqiy muhandislik holati alohida o‘rganilsa, xaridorning “Bolamni shu tom ostida xotirjam uxlata olamanmi?” degan savoliga javob topiladi. Bu savolning ahamiyatini Turkiyadagi 2023-yil 6-fevral zilzilalari eslatib turadi. BMT Taraqqiyot dasturi oradan bir yil o‘tib e’lon qilgan ma’lumotda 53 mingdan ortiq kishi halok bo‘lgani, 3,3 million odam boshpanasiz qolgani qayd etilgan. Binolar bilan birga, kundalik turmush, oilalarga oid ish va o‘quvchilarining ta’limi ham izdan chiqqan. 2018-yili Turkiyada qurilish amnistiyasi e’lon qilingan bo‘lib, unda 2017-yil oxirigacha ruxsatsiz yoki ruxsatnoma shartlariga zid qurilgan obyektlar qamrab olingan edi. Keyingi fojia binoga huquqiy maqom berish bilan uning zilzilabardoshligini ta’minlash o‘rtasidagi farqni ko‘rsatdi.

London universitet kolleji 2024-yil fevralda EEFIT (zilzila muhandisligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot guruhi)ning hisobotini e’lon qildi. Kembrij universiteti mutaxassislari ham qatnashgan Turkiya zilzilasi tafsilotlarini o‘rganishda armaturaning noto‘g‘ri joylashtirilishi, ruxsat etilganidan baland qurish va ayrim beton ustunlarni kesish kabi nuqsonlar qayd etilgan. Shu bois, ushbu tadqiqotchilar binolar haqidagi ma’lumotlarni ochish, nazoratni kuchaytirish va talabga javob bermaydigan obyektlarga amnistiya berish amaliyotidan voz kechishni tavsiya qilgan. Guruh rahbarlaridan biri, muhandis olim Yasemin Aktashning tushuntirishicha, mutaxassislar zilzilabardosh qurish usullarini bilgan, mavjud me’yorlar ham yuqori talablar asosida belgilangan. Ammo o‘sha bilim va talablar qurilishda to‘liq qo‘llanmagan.

O‘zimizda sodir bo‘lgan voqealar ham bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish lozimligini eslatib turadi. 2021-yil yanvarda Jizzaxda qurilishi tugallanmagan olti qavatli uy qulab tushgan edi. O‘shanda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qurilish sifati va bunga mas’ul shaxslarning qonun oldidagi javobgarligi masalasini ko‘targan. Bu e’tibor har bir uyda qurilish boshidanoq xavfsizlikni ta’minlashda ko‘rinadi.

Nazorat jarayonini oxirgi natijasigacha kuzatish nega muhimligini ayrim rasmiy xabarlardan ham anglash mumkin. Gap “Insoft Invest” kompaniyasining “Askiya City” majmuasidagi noqonuniy qurilishi haqida ketmoqda. Vazirlik bu kompaniyaga 2020-yil may oyida noqonuniy qurilish ishlarini to‘xtatish haqida ko‘rsatma bergan. Talab bajarilmagach, sudga murojaat qilingan. Kuzda bu taqiqlash va sud jarayoni takrorlangan. Shunga ham qaramay, 2021-yil fevralida ham ro‘yxatdan o‘tmagan obyektda noqonuniy qurilish davom etgan. Bu yagona holat emas. Yakkasaroy tumanidagi “Newport” majmuasining buyurtmachisi “Mega Logistics Servise” MCHJ mansabdorlari va boshqa mas’ullarga nisbatan joriy yilning avgust oyida jinoyat ishi qo‘zg‘atilgani haqida xabarlar tarqalgan. Unga ko‘ra, hududda ruxsatsiz 20, 19 va 12 qavatli uylar hamda ikki qavatli turar joy qurilgan.

Ushbu obyektlar bo‘yicha rasmiy munosabatda to‘qqiz blokdan uchtasi uchun arxitektura va ekspertiza xulosalari olingani, qurilishni boshlash inspeksiyada ro‘yxatdan o‘tkazilgani aytiladi. Qolgan oltita blokda ishlar ro‘yxatdan o‘tkazilmasdan olib borilgani uchun buyurtmachiga yozma ko‘rsatma berilgan, mas’ullar ma’muriy javobgarlikka tortilgan, texnik nazoratchiga nisbatan choralar ko‘rilgan. Avgust oyida hokimlik vakili Jasur Karimov majmua xatlovga kiritilganini aytgan.

* * *

Uy-joy masalasini shu binolardan xonadon olgan odamning ko‘zi bilan ham ko‘rishga harakat qilaylik. Bir tanishim Toshkentda qurilayotgan uylardan biridan xonadon olgan. Uning aytishicha, bir yilda topshirish va’dasiga ishonib, kelishilgan mablag‘ni to‘liq to‘lagan. Va shundan keyin yana uch yil o‘tgan bo‘lsa-da, hali uyga ko‘chib kira olmagan. Tanishim to‘qqiz qavatli bino qurib bitkazilgani, xonadon hatto ta’mir qilinganini aytadi. Lekin kadastr hujjati tayyor emas, kanalizatsiya ishlamaydi, suv, elektr va gaz ulanmagan.

Oliy sud ma’lumotiga ko‘ra, 2025-yili uy-joy munosabatlariga doir qariyb 27 mingta ish ko‘rilgan. O‘zboshimchalik bilan qurilgan uy yoki qurilmani buzishga doir ishlar esa 13 mingga yaqinlashgan. Bu raqamlar turli nizolarni qamraydi, ularning barchasini quruvchi bilan xaridor o‘rtasidagi nizo yoki firibgarlik deb tushunib bo‘lmaydi. Xaridorlar duch kelayotgan qiyinchiliklarning ko‘lami kechikish, takroriy sotish va pulni qaytarishga oid ishlar alohida tahlil qilinganda, aniqroq ko‘rinadi.

Qo‘shnimning so‘zlariga ko‘ra, yangi uydan xonadon olish uchun 200 million so‘m to‘lagan, keyin o‘sha xonadon bir necha kishiga sotilganini bilgan. Qo‘shnim ish sudgacha borganini, ammo pulini undira olmaganini aytadi. Chunki pul yig‘ish ortida turgan asosiy shaxslar g‘oyib bo‘lgan, qo‘lga olingan MCHJ rahbarining esa undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulki yo‘q ekan.

Bu kabi voqealar xaridor himoyasini mablag‘ to‘lanayotgan paytdan o‘ylashga undaydi. Xaridorning o‘z jamg‘armasi taqdirini bilishi ham uning ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ko‘zlangan eskrou usuli mazkur himoyani ta’minlashga qaratilgan. Xaridorning puli bankda maxsus hisobda saqlanadi, quruvchi ishni o‘z mablag‘i va loyiha krediti bilan olib boradi. Unda belgilangan tartibga ko‘ra, binodan foydalanishga ruxsatnoma berilgach, bank eskroudagi mablag‘dan avval shu qurilish uchun ajratilgan kreditni so‘ndiradi, qolgan qismini quruvchiga o‘tkazadi.

Ilgari mablag‘ to‘lagan oilalarning muammosi esa alohida yondashuvni kutadi.

Uyni kech topshirishning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Shartnoma majburiyatining bajarilmasligi bilan ehtimoliy aldovni farqlashda quruvchining haqiqiy imkoniyati, pulni jalb qilish holatlari va mablag‘lar sarfiga oid dalillar ahamiyatli. Masalaga shunday yondashish xaridor huquqini himoya qilish bilan birga, ishni halol olib borayotgan tadbirkorning manfaatini ham hisobga oladi.

* * *

Uyning tayyorligi xonadon eshigining ichkarisida tugamaydi. Suv, kanalizatsiya va elektr qatorida, kirish yo‘li, avtoturargoh, bolalar maydonchasi ham shu hayotning bir qismi.

Kirish yo‘lining ahamiyati, ayniqsa, shoshilinch yordam zarur bo‘lganida bilinadi. Joriy yil 24-oktyabrga o‘tar kechasi Uchtepa tumani Yusuf Sakkokiy ko‘chasidagi turar joy majmuasida yong‘in sodir bo‘ldi. Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi xabariga ko‘ra, chaqiruv soat 01:33 da kelib tushgan, yong‘in 01:52 da bartaraf etilgan. Xonadonda bir fuqaroning jasadi topilgan. Matbuot bilan suhbatda Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi matbuot kotibi Zuhriddin Qurbonov yo‘lga tartibsiz qo‘yilgan avtomobillar qutqaruvchilar harakatini qiyinlashtirganini, ular mashinadan tushib, hodisa joyiga yugurib borganini aytgan. Fuqaroning o‘limi va yong‘inning kelib chiqish sabablarini tergov aniqlaydi. Ammo shu o‘rinda o‘zimizga “Xo‘sh, yo‘lga mashinalar nega tartibsiz qo‘yilgan edi?” degan savolni ham berishimiz kerak. Chunki o‘sha ko‘p-qavatli uylar atrofida mashinalarni tartib bilan qo‘yish mumkin bo‘lgan hududning o‘zi bo‘lmasa kerak...

Senatning 2025-yil 2-avgustdagi qaroriga ilovada 2024-yil va 2025-yilning o‘tgan davrida 1,8 mingdan ortiq umumiy foydalanishdagi joy o‘zboshimchalik bilan to‘sib olingani qayd etilgan. Yong‘in xavfsizligi qoidalariga ko‘ra, binolar, suv manbalari va yong‘in o‘chirish vositalariga olib boruvchi yo‘llarni to‘sish taqiqlangan. Shaharsozlik me’yorlarida bolalar o‘yini, kattalar dam olishi, jismoniy tarbiya va avtoturargoh uchun maydonlar ko‘zda tutilgan. Me’yorlarda qutqaruv texnikasi yo‘lining kengligi bino balandligiga mos bo‘lishi, darvozadan mashina to‘siqsiz o‘tishi va yo‘l qoplamasi uning og‘irligini ko‘tarishi shartligi belgilangan. Uy atrofidagi hayot ana shu imkoniyatlarga tayanadi.

Shu bois, ayni kunlarda qurib bitkazilgan uylarning loyihalarini qabul qilish oldidan hokimlik, qurilish nazorati, favqulodda vaziyatlar va kommunal xizmatlar vakillarining birgalikdagi ko‘rigini tashkil etish, maqsadga muvofiqdir.

* * *

Endi poytaxtda ruxsatsiz qad rostlagan 61 ta uy mavzusiga qaytamiz. Vazir bu uylarni raqamli tekshirishda avtoturargoh, bolalar va sport maydonchasi kabi talablar bajarilmasa, ekspertizaga qabul qilmasligini aytgan. Vazirning aytishicha, “Turar joy” milliy axborot platformasida uylar texnik holatiga ko‘ra qizil, sariq va yashil toifalarga ajratilgan, umumiy ma’lumotlar ochiq. Masala parlamentning doimiy nazoratida bo‘lishi aytilgan.

Keyingi muhokamalarda nuqsoni tuzatilgan uylar, o‘z xonadoniga ko‘chib kirgan yoki puli qaytarilgan oilalar haqida ham eshitishni istar edik. Yechim izlayotgan idoralar, mas’uliyat bilan ishlayotgan quruvchilar va xonadon egalari o‘rtasidagi ishonch ana shu natijalar bilan mustahkamlanadi.

Poydevor qo‘yilganida boshlangan umid oilaning o‘z uyiga xotirjam kirib borishi bilan ro‘yobga chiqadi. Huquqiy aniqlik, xolis tekshiruv va kundalik yashash sharoiti birga ta’minlansa, uylar soyasida qolayotgan savollarga ham javob topiladi.

Abdulhamid MUXTOROV

JAHON AYVONIDA

UCHAR AVTOMOBILLAR UCHUN QOIDALAR

Dubay hukumati uchar avtomobillardan foydalanish bo‘yicha maxsus qoidalarni ishlab chiqmoqda.



“Al Bayan” gazetasi xabariga ko‘ra, yangi tartib doirasida mazkur transportni ro‘yxatdan o‘tkazish, infratuzilma yaratish va boshqarish uchun oddiy yoki maxsus ruxsatnoma talab etilishi – barcha shartlar belgilab beriladi.

ARMANISTON OVOZDAN MAHRUM



Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga a’zo davlatlar Armanistonni tashkilotda ovoz berish huquqidan mahrum etdi.

Mazkur qaror Moskvadagi sammit deklaratsiyasida tasdiqlandi. Armaniston Tog‘li Qorabog‘ mojarosi sababli yil boshida badal to‘lashni to‘xtatib, tashkilotdagi ishtirokini muzlatib qo‘ygan edi.

ENG UZOQ PARVOZ

“Airbus A350–1000ULR” yo‘lovchi uchoqlari orasida eng uzoq masofaga to‘xtovsiz uchish bo‘yicha Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildi.



Melburndan Tuluzagacha amalga oshirilgan parvoz 24 soat-u 24 daqiqa davom etgan – bu vaqt ichida havo kemasi 23 155 kilometr masofani bosib o‘tgan.

ITALIYADA TEKIN UYLAR

Kalabriya mintaqasida yo‘qolib borayotgan qishloqlarni saqlab qolish maqsadida ko‘chib keluvchilar uchun bepul uy-joy ajratish dasturi yo‘lga qo‘yildi.



Mahalliy hokimiyat 20 million yevrolik loyiha doirasida bo‘sh turgan 50 ta uyni davlat hisobidan ta’mirlaydi – so‘ng ularni dastur qatnashchilariga 10 yilga bepul foydalanishga beradi.

OLAM OLIMI



Syukuro MANABE

iqlimshunoslik “ob-havosi”ni o‘zgartirgan nobelchi

HAYOTI

Syukuro Manabe 1931-yil 21-sentyabrda Yaponiyada tug‘ilgan. Tokio universitetida tahsil olgan. 1958-yilda doktorlik ishini muvaffaqiyatli himoya qilgach, AQSHga ko‘chib o‘tgan. Avval Milliy okeanografiya va atmosfera tadqiqotlari boshqarmasida ishlagan, bir muddat Yaponiyada yashagach, yana Prinston universitetiga qaytib kelgan. Hozirda shu universitetda faxriy meteorolog. 2007–2014-yillarda Nagoya universitetida maxsus taklif qilingan professor sifatida ishlagan.

KASHFIYOTI

Insoniyat uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab tizimlardan biri – Yer iqlimi. Syukuro Manabe atmosferadagi karbonat angidrid miqdorining ortishi Yer yuzasida haroratning oshishiga olib kelishini ko‘rsatib berdi. 1960-yillarda Yer iqlimining fizik modellarini ishlab chiqishga rahbarlik qildi. Radiatsiya balansi va havo massalarining vertikal tashishi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rgangan birinchi olim bo‘ldi. Uning ishi hozirgi iqlim modellarini ishlab chiqish uchun asos yaratdi.

E’TIROF

2021-yilda fizika bo‘yicha Nobel mukofotining yarim ulushi Yer iqlimini fizik modellashtirish, iqlim o‘zgarishini aniqlash va global isishning ishonchli tahlili uchun Klaus Xasselman va Syukuro Manabega, yarim ulushi atomlardan sayyoralargacha bo‘lgan fizik tizimlarda tartib va tebranishlarning o‘zaro ta’sirini kashf qilgani uchun Jorjo Pariziga berildi. Jahon ilm-fan jamoatchiligi ushbu mukofotni o‘z vaqtida, ya’ni, BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 26-sessiyasi – COP26 arafasida berilganini e’tirof etgan.

Ayniqsa, Syukuro Manabe tomonidan ishlab chiqilgan, atmosfera va ummonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni hisobga oladigan raqamli simulyatsiya usullari iqlimshunoslik “ob-havosi”ni o‘zgartirib yubordi. Iqlim ob-havo kabi qisqa muddatda o‘zgarmaydi, uning evrilishi asrlarni qamrab oladi. Buni esa kunlik yo haftalik xabarlar beruvchi gidrometeorologiya xizmati orqali kuzatib, aniqlab bo‘lmasdi. Manabe insoniyatga ana shu imkonni – iqlimni ham ob-havoday bashorat qilish yo‘lini ochib berdi. Bu esa ilm-fan olamiga yangi havo olib kirdi, bo‘lajak tadqiqotlarga poydevor qo‘ydi.

Jasmina ISROIL
tayyorladi.

“JAVOHIR SINDOROVNING BOBOSI BO‘LIB TANILDIM”

Boshlanishi 1-sahifada.

O‘zbekiston 200 dan ziyod mamlakatdan 2 mingga yaqin eng kuchli va mashhur grossmeysterlar, nomdor jamoalar ishtirok etgan bellashuvlarda ikki karra olimpiada chempioni, degan yuksak sharafli unvonga ega bo‘ldi. Farzandlarimiz yutug‘ining ahamiyati shundaki, ular amaldagi Olimpiada chempioni – Hindiston, qadimiy shaxmat maktabiga ega bo‘lgan Xitoy va olti karra Olimpiada chempioni bo‘lgan AQSH jamoalarini mag‘lub etdi. Nodirbek Abdusattorov, Nodirbek Yoqubboyev, Muhiddin Madaminov, Shamsiddin Vohidov, Jahongir Vohidov, Javohir Sindorov nomlari butun dunyoga aks sado berdi. Parashaxmatchilarimizning jasorati va matonatini gapirmaslik mumkinmi?! Birinchi marta bronza medalini qo‘lga kiritdik bu yo‘nalishda.


Muhtaram Prezidentimiz bu shonli g‘alaba munosabati bilan shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zolariga tabrik yo‘lladi. Davlat rahbarining bu qadar g‘amxo‘rligi hamma mamlakatda ham ko‘riladigan hodisa emas. Shavkat Mirziyoyev shu bilan kifoyalanmay, “46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi va 3-Parashaxmat olimpiadasi g‘oliblari va ishtirokchilarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmonga imzo chekdi va faxriy unvon, orden va medallarni o‘z egalariga shaxsan topshirdi. Menga ham “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni, Javohirga “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni berildi. Bundan ortiq e’tibor, e’tirof va ehtirom bo‘lishi mumkinmi?!

Yurtboshimiz yuksak mamnuniyat bilan: “Sizlar – Yangi O‘zbekiston qahramonlari, jahon shaxmat olamida yangi tarix yaratgan oltin avlodsiz. Butun xalqimiz sizlar bilan cheksiz faxrlanadi, g‘ururlanadi. Ushbu nufuzli musobaqalarda sizlar tengsiz aql va tafakkur egalari bo‘lgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizga munosib voris ekaningizni amalda namoyon etdingiz”, deya ta’kidladi.

– 29-sentyabrdagi taqdirlash marosimini butun xalqimiz katta quvonch va hayajon bilan kuzatdi. Ayniqsa, Prezidentimiz Javohirga jahon toji uchun bo‘lajak bellashuvda O‘zbekiston xalqi ishonishini ta’kidlaganida, ko‘ziga yosh qalqmagan vatandoshimiz qolmadi hisob. Albatta, Javohirning bu yutuqlari bizga ko‘rinib turgan qismi. Ammo uning mehnatlari, chekkan mashaqqatlari doim ham omma ko‘ziga ko‘rinavermaydi. Buni, ayniqsa, Siz chuqur va teran his qilasiz.

– Shunday. Hech bir bola shaxmat to‘garagiga o‘zi kirib bormaydi, kimdir sababchi bo‘ladi. Doim aytaman, har bir chempionning orqasida bir qahramon turadi. Qahramonlik esa fidoyilikni talab qiladi. Jonfidolik ham ko‘r-ko‘rona emas, aql va mantiqqa suyangan bo‘lishi kerak. Hozir bolamni yedirib-ichirib, ust-boshini but qilib qo‘ysam bo‘ldi, deydigan zamon emas. Har bir farzandning ichki dunyosini, qiziqishlarini o‘rganish, iqtidorini erta aniqlab, barvaqt yo‘nalish berish kerak-da. Mana shu hafsala Vatan, xalq va yangi avlod oldidagi fidokorona ish bo‘ladi.

Javohirni to‘rt yarim yoshidan shaxmat to‘garaklariga olib borardik. Lekin bu bilan ham ish bitmaydi. Natijani ko‘zlagan kishi unga tizimli, tahliliy yondashuv asosida, jiddiy qarashi lozim. Yaxshi niyat va qat’iyat muvaffaqiyat garovi bo‘la oladi. Javohir sakkiz yoshida O‘zbekiston chempioni bo‘ldi, o‘sha paytdan boshlab uni hali jahon chempioni bo‘lasan, deb ruhlantirganmiz. U ana shu yuksak niyat bilan o‘sdi. Birgina Xitoyning o‘zida yuzdan ortiq grossmeyster bor. Hammasi jahon chempionligiga harakat



qiladi. Shu paytgacha shaxmat tarixida 18 nafar jahon chempionining nomi bitib qo‘yilgan. O‘n to‘qqizinchisi bu yil aniqlanadi.

Buning uchun iste’dodning o‘zi kifoya emas. To‘g‘ri, Javohir uch yoshida karra jadvalini bilardi, to‘rt yoshida juda katta sonlar ustida ham to‘rt amalni bajarardi. Shu jihatdan, shaxmatni tanlaganimiz bejiz emas. Ikkinchi omil ham bor – iqtidordan noto‘g‘ri foydalanilsa, ishlar boshqacha tomonga ham og‘ib ketishi mumkin. Bola tog‘ jilg‘asi, u bo‘stonlarga oqishi yoki qumga singishi mumkin. Eng yomoni, turg‘un ko‘lmakka aylanib qolish. Shuning uchun ham iste’dodni to‘g‘ri boshqarish muhim.

Mamlakatimizda shaxmat rivojiga berilayotgan doimiy e’tibor, yo‘lga qo‘yilgan samarali tizim va qulay sharoitlar biz erishayotgan natijalarni ta’minlashda muhim omil bo‘lyapti. Yaqinda Prezidentimizning bu borada yana bir qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat yaqin kelajakda yanada ulkan natijalar uchun mustahkam zamin yaratadi. Ayniqsa, xotin-qizlar shaxmatiga e’tibor berilayotgani sohaning uzoq yillik og‘rig‘iga davo bo‘ldi. Bir paytlar chempion bo‘ladigan chog‘i bor qizlarimizning ko‘pi e’tiborsizlik va qiyinchiliklar sabab sportni tashlab ketdi. Chunki suyanadigan ustun topolmadi, moddiy rag‘bat ko‘rmadi. Borib-borib o‘rtada bo‘shliq paydo bo‘ldi. Olimpiadada yigitlarimiz shohsupada, qizlarimiz 13-o‘rinda. Bu, qizlarimizning salohiyati kam degani emas. Aslo! Biz bundan ko‘piga loyiqmiz. Agar o‘tgan davrdagi shaxmatchilarimiz bugun faoliyatda bo‘lganida edi, qizlarimiz ham hozir olimpiadada birinchi o‘rinni olish imkoniga ega bo‘lardi. Mana, shu yerda fidoyilik, iste’dod tarbiyasi va davlat e’tiborining ahamiyati ko‘rinadi. Shukur, bu borada ham katta ishlar boshlandi, natijani kelgusi olimpiadalarda ko‘ramiz, nasib etsa.

Fidoyi insonlar nevarasi, bolasi bo‘ladimi, shogirdi bo‘ladimi, qo‘lidan yetaklab, o‘sha katta sahnalargacha olib borishi kerak. Javohir uchun men shu vazifani bajarganman. Buning samarasini juda erta ko‘rdik. O‘zbekistonda boshlangan islohotlar iste’dodlarning yuzaga chiqishini tezlashtirib yubordi. Balki shuning uchundir, ilmim, ijodim, faoliyatim bir tomonda qolib, Javohir Sindorovning bobosi bo‘lib tanildim.

– Darhaqiqat, Javohir haqida ko‘p yozildi, gapirildi, kelgusida ham bundanda ko‘p qaytamiz yosh grossmeysterimizga. Keling, suhbat o‘zanini faoliyatingizga bursak. Ergash Jumanbulbulning avlodi o‘laroq, so‘nggi yillarda detektiv asarlaringiz bilan kitobxonlar olqishiga sazovor bo‘lyapsiz. “Tergovchi” rukni bugun yangi asr detektivi sifatida shuhrat qozonyapti.

– O‘zbekistonda beshta dostonchilik maktabi bo‘lgan, shularning bittasi – Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanidagi Qo‘rg‘on qishlog‘ida. Men shu muhit mevasiman. Onam kutubxonachi edi, men esa detektiv asarlarni yoshligimda ko‘p o‘qib, 6-sinfdan huquqshunos bo‘laman, derdim. Qarang, kitobning 20 ga yaqin xislati bor, bittasi kasb tanlashda to‘g‘ri yo‘nalish berishidir.

U paytlarda yuridik fakultetga kirish oson emasdi. Oddiy o‘qituvchining o‘g‘liman. Maktabda muallimlar “Kirolmaysan baribir” deyishgan. Lekin men talaba bo‘ldim. Biz bitirgan 1983-yil olovli davrga to‘g‘ri keldi. “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” avj olayotgan, Gdlyan va Ivanov yangi qatag‘on o‘tiga moy sepib turgandi. Oddiy suvchidan respublika rahbariyatigacha “poraxo‘r”, “o‘g‘ri”, “yolg‘onchi” degan tamg‘a urilib, g‘ayriinsoniy usullar bilan yo‘q aybiga iqror qildirish jarayoni ketardi. Bular hammasi O‘zbekistonni, o‘zbek xalqini badnom qilish, qudratli to‘lqin oldiga to‘g‘on qurishga qaratilgan harakat edi.

Oilamiz kayvonilari, olim ustozlarimiz tiyiqsiz fitna alangasi yosh kadrni kuydirishi yo bir yo‘la kulga aylantirishidan xavotirlanib, meni pedagoglikka yo‘naltirib yuborgan. Shuning uchun o‘zim o‘qigan fakultetda o‘qituvchi bo‘lib qolganman. Akademik Hojiakbar Rahmonqulov qo‘l ostida ilm bilan shug‘ullandim. Aspiranturani bitirgach, yoshlik ishtiyoqi zo‘r kelib, respublika prokuraturasida ish boshladim. Bu endi Mustaqilligimizning dastlabki kunlariga to‘g‘ri keldi. O‘shanda ish yuritishda davlat tili – o‘zbek tiliga o‘tish talabi bor edi. Lekin o‘sha paytda respublika prokuraturasida o‘zbek tilida yozadiganlar barmoq bilan sanarli edi. Shu davlatda yashab, shu xalq xizmatidagi organ uning tilida erkin so‘zlashish va yozish salohiyatiga ega emasdi. Yaqinda gazetangizda Bosh prokurorning maqolasini o‘qib, quvondim: bugun O‘zbekiston prokurorlari nafaqat o‘zbek tilida erkin muloqot qiladi va yozadi, balki davlat tiliga oid qonun talablari ijrosini nazorat ham qiladi. Shu kunlarga yetkazganiga shukurlar bo‘lsin!

Hozirgacha 17 ta detektiv asar yozgan bo‘lsam, ularning barchasi hayotiy material asosiga qurilgan. Yozuvchiligimiz tajriba zaminida o‘sib-undi. Ko‘plab muxlislarim: “Asarlaringizni o‘qib, prokuratura, advokatura, sud haqidagi tasavvurlarimiz ijobiy tomonga o‘zgardi. Oldin boshqacha tasavvur qilgandik”, deb aytadi. Men bugun qilayotgan eng katta ish shu tizimning ichida zahmatkash, adolatli insonlar ko‘pligini yoshlarimizga, xalqimizga tushuntirishdan iborat, deb bilaman. Prokuratura jazolovchi emas, yordam beruvchi tizim ekanini badiiy ifoda etaman. O‘n yil oldingi qarashlar, munosabatlar o‘tib ketdi… Adliya va kuchishlatar tizimlarning tafakkuri o‘zgardi.

Alohida ta’kidlashni istardimki, detektiv janr deganda ko‘ngilochar, boshqotirmani tushunmaslik kerak. Janr men uchun vosita, zamirida esa tarix bor. Boshqacha aytganda, buning ichida jadid bobolarimizning orzulari, mushkul zamonlarda yashab o‘tgan insonlar armoni, bugun va kelajakning umidlari ham yotibdi-da.

– Kechirasiz, ustoz, shu o‘rinda Sizning yozuvchi sifatida eng og‘ir janr – detektivga oshno bo‘lganingiz tub zamirida ham tafakkur kengligi, fantaziya uchqurligini o‘ylab, nevarangiz Javohir DNKsida ana shu unsurlar takomil topib, aql bahsi bo‘lgan bellashuvlarda g‘olib bo‘layotgan ekan-da, degan to‘xtamga keldim…

– Uzr, lekin men bu haqda o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Umuman, real voqelikni ideallashtirishga qarshiman. Albatta, hammamiz Yurtboshimiz lutf etganidek, daholar vorislarimiz. Ammo DNKni uyg‘otish uchun mehnat, e’tibor, sharoit va intizom kerak, deb hisoblayman. Biz Javohirni shu tariqa shakllantirganmiz.

– Xo‘p, mayli. Lekin men o‘z fikrimda qolaman. Boya iste’dodga turtki kerak, dedingiz. Roman va qissalarga qo‘l urishingizda kim yoki nima turtki bo‘lgan?

– Ko‘pchilik singari men ham she’r yozishdan boshlaganman. She’rlarim xalqona yo‘lda bo‘lgani uchun, negadir, jimjima satrlar oldida g‘arib ko‘rardim, birovga ko‘rsatmasdim. Sekin-sekin to‘planib qoldi. Bir kuni hammasini oqqa ko‘chirib, taniqli publitsist Ashurali Jo‘rayevga olib bordim. “Fan doktori bo‘lsangiz, sudning raisi bo‘lsangiz, she’riyatda nima qilasiz, birovning bog‘iga o‘tmang”, deb hazillashgan. Lekin bir haftadan keyin she’rlarimni gazetada chiqargan. Shu ruh berdi, ijodda davom etdim. 2007-yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindim.

Men detektiv asar yozaman, deb hech qachon o‘ylamaganman. Balki bir voqea yuz bermaganida, yozmasdim ham. Kunlarning birida ustoz Xudoyberdi To‘xtaboyev yo‘qladi. “She’rlaringizni o‘qidim. Menga yoqdi, bo‘shashmang. Lekin shoir emasman. Meni so‘zboshingiz qiziqtirib qo‘ydi. Yurist ekansiz-ku. Tergovda, prokuraturada, sudda ishlagan ekansiz. Detektiv asarlar yozadigan hech kim qolmayapti. Shu janr oqsab yotibdi. Nasrda yozsangiz, qanday bo‘larkin? Mana, qo‘lingiz kelib qolibdi-ku”, dedi. “Unaqa asar yozolmasam kerak, yoshim ham yangi yo‘l ochishga o‘tinqirab qolganmi” dedim, bahona izlab. “Endi 49 ga kiribsiz. Yosh bola ekansiz-ku hali”, dedi ustoz hazillashib.

U kishi yuragimga cho‘g‘ soldi. Jizzaxga borib, o‘sha kundan boshlab har kuni bir soatdan yozishga odatlandim. Bir yilda 300 betlik asar tayyor bo‘ldi. Istihola bilan qo‘lyozmani ustozga yetkazdim. Borishga uyaldim, ochig‘i. Uch kundan keyin chaqirib: “Qo‘ldan kelgancha bir-ikki joyini tahrir qildim. Dardingiz mo‘l ekan. Detektiv asarning o‘ziga yarasha 20 ta xususiyati bor. Siz bilmasangiz ham mos qilib yozgansiz. Bu ko‘p o‘qishdan. Rosmana milliy detektiv bo‘libdi. Bosamiz!” – dedi, so‘zboshi ham yozdi.

– Katta ustozlar sabog‘i va duosini olgan ekansiz. Bugun o‘zingiz ham ustozsiz. Davlatimiz rahbari bejiz Sizni yoshlar murabbiysi sifatida e’tirof etmagan. O‘zingiz yoshlarga qanday tavsiya bergan bo‘lar edingiz?

– Inson komillikka erishishi, ko‘p ishga ulgurishi, armonsiz o‘tishi uchun uchta narsani yoddan chiqarmasligi kerak. Birinchisi, bir kunda kamida bir soat ilm olish. Buning ichiga shaxmatni ham qo‘shaman. Ikkinchisi, har kuni bir soat jismoniy tarbiya – jismni poklash uchun kerak. Masalan, o‘zim har kuni bir yarim-ikki soat tennisga boraman. Uchinchisi, bir kunda bir soat – ibodat. Bu keng ma’noda ko‘ngilni poklash uchun. Men bugun nimaga erishgan bo‘lsam, farzandlarim, nevaralarimning muvaffaqiyatlari ham mana shu uch tamoyilga qurilgan.

Bolaning begonasi bo‘lmaydi, deydi xalqimiz. Ba’zi o‘smirlarning, yoshlarning tutumlariga qarab achinib ketaman. Masalan, turk, ingliz, rus tillarini o‘rganyapti-da, ulardan foydalanishga ulgurmay, to‘rtinchi, beshinchi tilni o‘rganishga kirishib ketyapti. “Siz ko‘p til bilishga qarshimisiz?” degan savol tug‘ilishi mumkin. Aslo! Faqat aytamanki, baraka topgur, dunyo degani faqat til o‘rganish emas. Tilning ishingda, o‘qishingda asqotadiganini o‘rgan. Kasb-hunaring bo‘lmasa, bilimingni ishlatmasang, nima bo‘ladi?

Kitob o‘qish ham shunaqa. Qo‘lga tushganini o‘qish mutolaa emas. Kitobni tanlash muhim. Befoyda o‘qish umrni isrof qilish bilan teng. Davlatimiz rahbari shuning uchun ham yangi tuzilmaga “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasi” deb nom berdi. Har ishning o‘z madaniyati bor-da. Yigit-qizlarning qo‘lidagi kitoblarga qarasam, ko‘pi tez va oson pul topishni o‘rgatish da’vosidagi asarlar. Nomi chiroyli, reklamasi qiziq bo‘lsa, ergashtirib ketadida. Qo‘lida telefon turibdi: Internetga kirib o‘sha muallifning iqtisodiy ahvolini bilib olsin. Xazinaning kaliti qo‘lida bo‘lgan odam undan foydalanmay, boshqalarga berib qo‘yadimi? Ko‘pchiligi mana shu kitoblar savdosi orqali boy bo‘lgan. Iqtisodiy bilimni oshiruvchi kitob bilan motivatsiya beruvchi kitobning farqi bor.

– Ustoz, bugungi suhbat samimiy, ko‘p qirrali va katta-kichikka birday manfaatli bo‘ldi, nazarimizda. Javohir Sindorov kabi yosh daholarning qay muhitda tug‘ilib, tarbiya topganini odamlarga sodda va ravon tilda tushuntirib berdingiz. Har bir so‘zingiz shaxmat yurishlariday aniq hamda puxta bo‘ldi. Kelgusi ijodiy ishlaringizda yuksak parvozlar yor bo‘lsin! Jahon shaxmat toji sohibining bobosi bo‘lishni tilab qolamiz!

Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.

O‘zbekistonim

Xaritaga tashlayman nazar,
Ne-ne yurtlar yastanib yotar.
Har birida ming bir sinoat,
Muzlikda ham odamzod yashar.
Kim giyohsiz yurtin ulug‘lar,
Kim quyoshsiz yurtin qadrlar.
Nechun senday suyuk yurt uchun,
Yuragimda to‘lmas faxrlar?!
O‘zing mening jannatmakonim,
Ona yurtim – O‘zbekistonim.

Jaloliddin kirganda jangga,
“Sichqon ini bo‘ldi ming tanga”.
Omon chiqib ajal komidan,
Ko‘p yaradi yurtga, Vatanga.
Amir Temur – yengilmas xoqon,
Poylarida tiz cho‘kdi jahon.
Jaholatning o‘tkir tig‘iga,
Adolatni ayladi qalqon.
Faxrim mening, Sohibqironim,
Ona yurtim – O‘zbekistonim.

Beshik bo‘lding necha zotlarga,
Qancha ilm-u, ta’limotlarga.
Har qariching sirli olamday,
To‘la noyob ma’lumotlarga.
Qo‘llarida qilich-u qalam,
Yuragida sevinch-u alam.
Shamshiridan yovlar poyida,
Qalamidan tiz cho‘kdi olam.
Ilm-u ma’rifatga oshyonim,
Ona yurtim – O‘zbekistonim.

Tangri taolo yo‘ling yoritdi,
Xizr bobo qo‘lingdan tutdi.
Zulmat aro toptalgan yurtda,
Mustaqillik tonglari otdi.
Shijoati, g‘ayrati bo‘lak,
Surati-yu siyrati bo‘lak.
Qarog‘ida asrab, avaylab,
Tangri ato etgan Sheryurak.
Elsevarim, shavkatim, shonim,
Ona yurtim – O‘zbekistonim.

Porlayversin ko‘kda quyoshing,
Omon bo‘lsin, shu aziz boshing.
Tinchlik, mehnat bo‘lsin shioring,
Yuz minglardan oshsa ham yoshing.
Gulla, yashna, iqboling kulsin,
Xirmonlaring hosilga to‘lsin.
Shu muqaddas, go‘zal zaminga,
Faqat fayz-u barokat kelsin.
Balqir mening davr-u davronim,
Ona yurtim – O‘zbekistonim.

Komil SINDOROV



“Bolaning bilimi maktabga, ilmi oliygohga, tarbiyasi esa ota-onasiga bog‘liq.

Anton CHEXOV

MILLAT FIDOYILARI

QONLI JILD

1937-yil 14-oktyabr. Buxoro. O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi “uchlik” muhokamasiga viloyatdan 191 nafar mahbusning ishi kiritildi. Apresyan, Segizboyev, Sheyndlin, Yakovlev ishtirokida ko‘rilgan bu ishlar bo‘yicha 183 kishi otuvga, 7 kishi mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilindi. Bor-yo‘g‘i bir nafar mahbus ozod etildi. O‘sha kuni otuvga hukm qilinganlarning 31 nafari buxorolik jadidlar edi. Ular orasida bir paytlar Buxoro Xalq Sovet Respublikasida mas’ul vazifalarda ishlagan, keyinchalik oddiy mehnat bilan ro‘zg‘or tebratgan Qori Abdulla Toshpo‘latov ham bor edi.



2026-yil 12-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati arxivida saqlanayotgan P-34217-sonli jinoyat ishini o‘rganish imkoni tug‘ildi. Tintuv orderi, qamoqda saqlash qarori, guvohlarning so‘roq bayonnomalari va “uchlik” hukmi bir paytlar faqat ismi va ayblovlari ma’lum bo‘lgan insonning hayotidagi so‘nggi voqealarni hujjatma-hujjat kuzatishga imkon berdi.

Qori Abdulla 1879-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Hujjatlarda u o‘zbek, o‘rta diniy ma’lumotli, partiyasiz, SSSR fuqarosi sifatida qayd etiladi. Ijtimoiy kelib chiqishi “massajchining o‘g‘li”, inqilobgacha mashg‘uloti esa “xizmatchi” deb ko‘rsatilgan. Amirlik davridagi ishi xususida guvohlar turlicha so‘zlaydi: biri uni amir sudida kotib, boshqasi sud idoralarida qozi bo‘lgan, deydi. Bu tafovutlarni tergov ishining o‘zidagi ma’lumotlar sifatida qabul qilishga to‘g‘ri keladi.

1920-yili Buxoro amirligi tugatilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilgach, u davlat va jamoat ishlarida faol ko‘rina boshlaydi. Tergov materiallarida kasaba uyushmasida kotiblik va raislik qilgani, adliya sohasida ishlagani keltiriladi. Keyinchalik tergov jarayonida guvohlardan birining aytishicha, Qori Abdulla 1923–1925-yillarda respublika adliya xalq komissari o‘rinbosari bo‘lgan. Boshqa qaydlarda u Buxoro Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti raisi sifatida ham tilga olinadi. Lavozimlarga oid hujjatlardagi farqlar alohida tekshirishni talab etadi.

Keyingi yillarda esa uning hayoti davlat idoralaridan hammomga ko‘chganini ko‘ramiz. Qori Abdulla 1929-yilgacha Buxoroda hammomni ijaraga olgani, keyin shahar hammomida ishlagani aytiladi. Boshqa guvoh esa uni 1925-yildan o‘zbek hammomida massajchi bo‘lib ishlagan, deb ko‘rsatadi. 1937-yilda u aynan shu mehnat bilan kun kechirayotgan edi. Biroq tergovchilar uchun uning bugungi kasbidan ko‘ra kechagi lavozimlari, tanishlari va aytgan so‘zlari muhimroq bo‘lib chiqdi.

Ayblovning bir uchi 1920-yilga borib taqaladi. Tergovda Qori Abdulla “Milliy ittihod” tashkilotiga o‘sha yili jalb qilingani da’vo etilgan. Ko‘rsatmalarda Mukammil Maxsum Burhonov va Rahimxon Yusufzoda orqali unga kasaba uyushmasi a’zolari orasidan tashkilot uchun kadrlar tayyorlash vazifasi berilgani aytilgan. Qori Abdullaning Mallaboyev, Odil Odinayev va Fayzulla Xo‘jayev bilan yaqin aloqada bo‘lgani ham aytilgan. Ko‘rsatmada “Milliy ittihod” a’zosi sifatida tilga olingan Mallaboyev o‘shandan uch yil avval millatchilikda ayblanib, hibsga olingan edi. Boshqa hujjatlarda Usmonxon Eshonxo‘jayev, Muinjon Aminov, Rahim Yusufzoda va Porso Xo‘jayev nomlari ham uchraydi. Bular tergov materiallaridagi ayblov va guvoh da’volaridir; ularni o‘z-o‘zidan isbotlangan a’zolik deb qabul qilib bo‘lmaydi.

1937-yil yozida Qori Abdullaning hammomdagi suhbatlari ham tergovchilar uchun ayblov manbayiga aylandi. 10-iyul kuni 3-sonli hammomda Fayzulla Xo‘jayevning lavozimdan chetlatilgani haqida gap ochiladi. Qori Abdulla bu qarordan afsuslanib, Xo‘jayevga yana katta lavozim berilishiga ishonch bildiradi. Suhbatda hozir bo‘lgan guvohlardan birining ko‘rsatmasi bilan bu gaplar tergov hujjatlariga ko‘chadi. Shu tariqa, bir davlat arbobining ishdan olinishiga bildirilgan munosabat “sovet hokimiyatiga qarshi kayfiyat” dalili sifatida qayd etiladi. Ammo o‘sha kuni hammomda gap faqat Fayzulla Xo‘jayevning taqdiri haqida ketmagan edi. Qori Abdullaning o‘zi ham hukumatning soliq siyosatidan norozi bo‘lgan. 1937-yil 29-avgustda so‘roq qilinganlardan biri o‘sha kungi suhbat tafsilotlarini oqizmay-tomizmay tergovchiga yetkazadi. Uning ko‘rsatishicha, hammom kassiri Mirza Hasan Mirahror ham ishtirok etgan suhbatda Qori Abdulla o‘ziga 1200 rubl soliq solinganidan shikoyat qilib: “Eh, sovet hokimiyati ishlayotganlarga tinchlik bermaydi, ish bo‘yicha soliq talab qiladi”, degan. Boshqa guvohlarning ko‘rsatmalarida esa uning hammom xodimlarini soliq to‘lamaslikka chaqirgani, Fayzulla Xo‘jayevga ariza yozilsa, soliqni bekor qildirish mumkinligini aytgani keltiriladi.

Soliqdan norozilikning o‘zi Qori Abdullani siyosiy ayblovga tortish uchun yetarli ko‘rilmagan, shekilli, tergov materiallarida xalq turmushi haqidagi gaplari ham paydo bo‘ladi. Guvoh ko‘rsatmalariga qaraganda, iyul oyi boshlarida u Muqimov va boshqalar huzurida: “Mana, senga sovet hokimiyati, non yo‘q, xalq och, hatto pulga hech narsa topilmaydi”, deydi. Yana bir ko‘rsatmada uning “Ilgari yaxshi yashardik, endi yomon kun kechirmoqdamiz”, degan so‘zlari keltiriladi. Fayzulla Xo‘jayevning ishdan olinishi ham shu tashvishlar bilan bog‘langan: “Endi Fayzulla Xo‘jayevni ishdan olishdi, Buxoro xalqi och qoladi, chunki Fayzulla Xo‘jayev hamisha xalqqa yordam berib kelardi”.

Shu tariqa, turli vaqtlarda aytilgan gaplar Qori Abdullaga qarshi bir jinoyat ishiga jamlandi. 1937-yil 27-avgustda Davlat xavfsizligi boshqarmasining 755-sonli orderi asosida Ichki ishlar xalq komissarligi xodimi Bahromov Buxoro shahri, Ko‘chabog‘ mahallasidagi 39-uyga kelib tintuv o‘tkazadi. Qori Abdulla norozilik bildirsa-da, uning shikoyati inobatga olinmaydi. U hibsga olinib, ustidan P-34217-sonli jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi va Davlat xavfsizligi boshqarmasining 3-bo‘limi ixtiyoridagi Buxoro turmasiga joylashtiriladi.

Qori Abdulla hibsga olingan kunning o‘zidayoq tergov boshlanadi. 27-avgustda Buxoro sektori boshlig‘i, Davlat xavfsizligi leytenanti Rimskiy uni tergov qiladi. Ertasi kuni 3-bo‘lim tezkor vakili, Davlat xavfsizligi kichik leytenanti Volik uni tergov va suddan yashirinishining oldini olish vaji bilan Buxoro turmasida saqlash haqida qaror chiqaradi. Qarorda Qori Abdullaning amir davrida kotib, keyinchalik adliya xalq komissari o‘rinbosari va hammomda massajchi bo‘lib ishlagani sanab o‘tiladi. “Milliy ittihod”ga a’zolik, Eshonxo‘jayev va boshqalar bilan aloqadorlik, millatchilik targ‘iboti haqidagi ayblovlar ham shu hujjatdan joy oladi. Hatto uning yoshi ham noto‘g‘ri ko‘rsatilgan: 1879-yilda tug‘ilgan Qori Abdulla 1937-yilda 58 yoshda bo‘lishi kerak edi, qarorda esa 55 yosh deb yozilgan.

Tergov materiallari to‘plangach, Ichki ishlar xalq komissarligi 3-bo‘limi xodimi ishni “uchlik” muhokamasiga yuboradi. 1937-yil 14-oktyabrda Qori Abdullaning taqdiri uzil-kesil hal qilinadi. 2441-sonli ish bo‘yicha u aholi orasida sovet hokimiyatini obro‘sizlantiruvchi targ‘ibot olib borganlikda, ochlik haqida “ig‘ovgarona mish-mishlar” tarqatganlikda, “Milliy ittihod” rahbarlari va a’zolari bilan so‘nggi vaqtgacha aloqada bo‘lganlikda ayblanib, otuvga hukm qilinadi. Mol-mulkini musodara qilish ham belgilanadi. Hukm qachon ijro etilgani esa biz o‘rgangan hujjatlarda qayd etilmagan.


Arxivda saqlanayotgan qonli jild Qori Abdulla Toshpo‘latovga nisbatan chiqarilgan hukm tafsilotlarini ochib berdi. Biroq uning ortida qolgan oila taqdiri hanuz noma’lum. Rafiqasi Salomat Qosimova, o‘g‘li Abdurahmon, qizlari Lutfiya, Musharraf va Rahima otasining hibsidan keyin qanday kunlarni boshdan kechirdi? Bugun ularning avlodlari bormi? Qori Abdullaning surati, maktublari, shaxsiy hujjatlari yoki u haqdagi xotiralar biror xonadonda saqlanib qolganmi? Bu savollarga hozircha javob topolmadik. Shu bois, mazkur oilaga oid har qanday ma’lumot, surat va hujjatga ega mushtariylardan tahririyatga murojaat qilishlarini so‘raymiz. Bu tarixni tiklash, Qori Abdulla haqidagi ma’lumotlarni to‘ldirish sharafli burchimizdir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

MENING SHAHRIM

SAMARQAND NECHA YOSHDA?

Bu savolga oddiy bir raqam bilan javob berish osonday ko‘rinadi. 2750 yilmi? Uch ming yilmi? Yoki undan ham qadimiyroqmi? Aslida, shaharning yoshini insonning tug‘ilgan sanasidek aniq belgilab bo‘lmaydi. Chunki shahar bir kunda paydo bo‘lmaydi. Dastlab kichik manzilgoh vujudga keladi. Keyinchalik aholi soni ortadi, suv tarmoqlari kengayadi, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlanadi, savdo-sotiq jonlanadi, mudofaa devorlari quriladi va boshqaruv tizimi shakllanadi. Hukmdor qarorgohi joylashgan ark, aholi yashaydigan shahriston va savdo-hunarmandchilik rivojlangan rabotning shakllanishi ham shahar taraqqiyotining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ana shu uzoq davom etadigan jarayonlar natijasida manzilgoh asta-sekin shahar qiyofasini kasb etadi. Samarqand tarixi ham xuddi shunday murakkab va ko‘p asrlik taraqqiyot jarayonining mahsulidir.





Qadimgi Misr tarixini Nilsiz, Mesopotamiyani Dajla va Frotsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lganidek, Samarqand tarixini ham Zarafshon daryosisiz anglab bo‘lmaydi. Baland tog‘lardan boshlangan daryo g‘arb tomon oqar ekan, yo‘l-yo‘lakay yuzlab soy va kichik suv oqimlarini qabul qiladi. Samarqand yaqinida u Oqdaryo va Qoradaryo tarmoqlariga ajralib, keng va unumdor vohani hosil qiladi. Daryo sohillaridagi hosildor yerlar esa qadimdan dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan. Tog‘lardan oqib kelgan suv daryo va kanallarga yo‘naltirilgan, kanallar esa ekinzorlar, bog‘lar, qishloqlar va keyinchalik shaharlarni hayot bilan ta’minlagan. Samarqand sivilizatsiyasining eng muhim sirlaridan biri ham shunda. Varag‘sar – hozirgi Ravotxo‘ja atrofida Zarafshon vodiysi kengayib, daryo suvini katta kanallarga taqsimlash uchun qulay tabiiy sharoit hosil qiladi. Daryodan bosh olgan Darg‘om va Bulung‘ur kabi yirik suv tarmoqlari Samarqand vohasining iqtisodiy hayotini ta’minlaydi.

IQLIM TARIXNI O‘ZGARTIRGANDA

Ibn Xaldun iqlim va sivilizatsiya o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib, to‘rtinchi iqlimni eng mo‘tadil va sivilizatsiya taraqqiyoti uchun qulay hudud sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, shimol va janub tomonlardan keladigan sovuq va issiq havo oqimlarining ta’siri o‘rtadagi hududlarga borgan sari kamayib, to‘rtinchi iqlimda nisbatan mo‘tadil harorat sharoiti shakllanadi. Muallif birinchi va ikkinchi iqlimlarda aholi hamda shahar-qishloqlar nisbatan kamligini, uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi iqlimlarda esa aholi zichligi va shaharlar soni ko‘proqligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, to‘rtinchi iqlimni tabiiy sharoitlari jihatidan inson hayoti, ilm-fan, hunarmandchilik va shaharsozlik rivoji uchun qulay hudud sifatida ajratib ko‘rsatadi. Ushbu iqlim doirasidagi shaharlar qatorida Buxoro va Samarqand ham tilga olinadi.

Samarqand vohasining tabiiy sharoiti ming yillar davomida bir xil bo‘lmagan. Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda nisbatan nam va salqin havo shakllangan. Namlikning ortishi daryolarning suv bilan barqarorroq ta’minlanishiga xizmat qilgan. Bunday sharoit dehqonchilik uchun katta imkoniyat yaratgan. Aynan ilk temir davrida Markaziy Osiyoning turli hududlarida yirik shahar va manzilgohlar ko‘payishi ham tasodifiy emas. Sug‘dda Afrosiyob, Ko‘ktepa va Lolazor kabi markazlar shakllana boshlaydi. Demak, tabiat tarixning shunchaki foni emas. U tarixiy jarayonning ishtirokchisi bo‘lgan. Ammo tabiatning o‘zi shahar qurmaydi. Shaharni inson quradi. Samarqand tarixi esa insonning tabiiy imkoniyatdan foydalanish mahorati katta sivilizatsiya yaratishi mumkinligini ko‘rsatadi.

NEGA AFROSIYOB?

Ayrim qarashlarga ko‘ra, Zarafshon vohasida dastlabki shahar Ko‘ktepada shakllangan va miloddan avvalgi VI asrda mudofaa uchun qulay geografik sharoit tufayli shahar markazi Afrosiyobga ko‘chgan. Biroq bu masalaga aniq xulosa berish uchun har ikki yodgorlikning arxeologik qatlamlarini o‘zaro qiyosiy o‘rganish zarur. Afrosiyobning qadimiy tarixiga oid muhim dalillardan biri – uning hududidan bronza davri chorvador jamoalariga mansub qabrlar va ular bilan bog‘liq ashyolarning topilganidir. Ushbu sopol idishlar miloddan avvalgi XVIII-XVI asrlar bilan davrlashtirilgan. Bu topilmalar Afrosiyob hududi va uning atrofi bronza davrida ham aholi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur buyumlarning mavjudligi o‘sha davrda bu yerda shahar bo‘lganini anglatmaydi.

Ko‘ktepaning eng qadimgi madaniy qatlamlari esa miloddan avvalgi XIV-X asrlarga mansub. Bu davrga oid qatlamlarda yarim yerto‘la shaklidagi, nisbatan zich joylashgan dastlabki turar joylar aniqlangan. Ko‘ktepa I bosqichiga mansub qo‘lda yasalgan sopol buyumlar Burg‘ulluq madaniyati sopollariga o‘xshashdir. Shunga yaqin sopol buyumlar Afrosiyobda ham uchrashi ikki yodgorlikning qadimgi tarixini o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Biroq Afrosiyobda bunday buyumlar asosan aralash qatlamlarda uchrashi ularning xronologik o‘rnini aniqlashda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Ko‘ktepa II bosqichi miloddan avvalgi X-VI asrlar bilan davrlashtiriladi. Bu davrda shaharsozlik madaniyatining taraqqiy etishi hukmdor qarorgohi va diniy inshootlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Ayni shu davrga oid mudofaa inshootlari Afrosiyobda ham aniqlangan. Xususan, yodgorlikning shahriston qismida, to‘rtinchi mudofaa devorining eng quyi qatlamlarida balandligi taxminan uch metr bo‘lgan mudofaa devori qayd etilgan. U shaharning tashqi chegarasi bo‘ylab, tabiiy yer qatlami ustiga barpo etilgan. Bunday mudofaa inshootlarining ayrim qismlari arkning janubi-g‘arbiy tomonidagi qazishmalarda ham aniqlangan. Ushbu qatlamda qayd etilgan sopol idishlar Ko‘ktepa II – Yaz II davri bilan davrlashtirilgan.

Demak, Afrosiyob hududida ham Ko‘ktepa bilan zamondosh bo‘lgan davrdayoq mudofaa inshootlari mavjud bo‘lgan. Bu holat Afrosiyobning ilk shahar markazi sifatidagi ahamiyatini qayta baholash zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa shahar arkida qo‘shimcha arxeologik tadqiqotlar olib borishni talab etadi va ilk shahar markazini faqat Ko‘ktepadan izlash kerakmi, degan savolga ham oydinlik kiritilishi mumkin. Afrosiyobning keng hududni egallagani va uning turli qismlarida qadimgi mudofaa inshootlari aniqlangani esa ushbu yodgorlikning dastlabki shaharsozlik jarayonlaridagi o‘rnini chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi.

Afrosiyobning maydoni 219 gektardan ortiq bo‘lib, uning madaniy qatlamlari shaharning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Bunday keng hudud va murakkab madaniy qatlamlar Afrosiyobning qadimgi Sug‘d hayotida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Zero, “Avesto”da tilga olingan o‘n olti go‘zal yurt orasida ikkinchi bo‘lib qayd etilgan “Gava-Sug‘da” markazi qadimdan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan Afrosiyob bo‘lgan. Tarixiy manbalarda shahar Marokanda, Kan, Samarqand nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Afrosiyob nomi Turon hukmdori Afrosiyob – Alp Er To‘nga nomi bilan bog‘liqdir.



Afrosiyobning qadimgi Samarqandning muhim shahar markaziga aylanishida uning qulay geografik o‘rni, tabiiy himoya imkoniyatlari va suv manbalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Shahar atrofidagi chuqur jarliklar mudofaa uchun tabiiy to‘siq vazifasini bajargan. Shu bilan birga, Zarafshon vohasida joylashgani dehqonchilikni rivojlantirish, aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratgan. Samarqandning mintaqaviy savdo yo‘llari tutashgan hududda joylashgani esa uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini yanada oshirgan.

Samarqandning necha yoshdaligi haqidagi savol faqat arxeologlarni emas, o‘rta asr mualliflarini ham qiziqtirgan. Qadimgi manbalar va rivoyatlarda shahar tarixi ming yillar qa’riga olib boriladi. Albatta, bu ma’lumotlarni zamonaviy arxeologik sana bilan tenglashtirib bo‘lmaydi, ammo ular Samarqandning favqulodda qadimiy shahar sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi.

Abdumalik Haydar Samarqandiyning “Qandiyai xurd” asarida qiziq rivoyat keltiriladi: “Samarqand shahriga asos solinishi jarayonida birinchi bo‘lib tog‘lardan bir palang (qoplon) kelib, shahar hududi ichida aylanib chiqqan va so‘ngra orqaga qaytgan. Shu bois, shahar aholisi yo‘lbarsga o‘xshatib ta’riflanadi. Mutafakkirlarning ta’kidlashicha, mazkur hudud o‘ziga xos ta’sir xususiyatiga ega bo‘lib, samarqandliklar qaysi mamlakatda bo‘lmasin, boshqalardan go‘yoki quyosh kabi ajralib turadilar”. Qoplon qadimgi tasavvurlarda kuch, jasorat, hushyorlik va hukmronlik ramzi bo‘lgan. Shu jihatdan mazkur rivoyat Samarqandning kuch va salobat bilan bog‘langan tarixiy obrazini ifodalaydi.

Antik yunon tarixchilari o‘z asarlarida Samarqandni “Marokanda” deb atab, uni Sug‘dning poytaxti sifatida tavsiflaydilar. Ilk o‘rta asrlar davri Xitoy manbalarida shahar “Kan” deb nomlanib, unga g‘arbiy o‘lkalardagi hukmdorlar bo‘ysungani yozilgan. Nasafiy esa Qutayba 712-yilda Samarqandni egallagan paytda shaharga 2250 yil to‘lgani haqida ma’lumot beradi. Ibn Havqal Samarqandni Movarounnahrning asosiy savdo va siyosiy markazlaridan biri sifatida ta’riflab, qadimgi Yaman podsholari bilan bog‘liq rivoyatlarni keltirsa, Qudama ibn Jafar Samarqand qurilishini Iskandar nomi bilan bog‘laydi. Bu rivoyatlar bir-biridan farq qiladi, ammo ularni birlashtirib turuvchi umumiy g‘oya aniq: Samarqand o‘rta asr muarrixlarining tasavvurida ham oddiy shahar emas, balki tarixi juda uzoq o‘tmishga borib taqaladigan siyosiy va madaniy markaz bo‘lgan. Arxeologiya esa ana shu tarixiy xotirani moddiy dalillar orqali qayta sanalash imkonini beradi.

DUNYONING JANNATI

Samarqand faqat qadimiyligi yoki siyosiy qudrati bilan hayrat uyg‘otmagan, uning tabiati ham sayohatchilar va tarixchilarni maftun etgan. XV asr tarixchisi Hofizi Abru shunday yozadi: “Dunyoning jannati to‘rtta: Nahr al-Ubulla, Damashqdagi G‘o‘ta, Sha’b-Buvon va Samarqandning Sug‘di”. Muallif boshqa mashhur vohalarning har birida bir kamchilik borligini aytar ekan, Samarqand Sug‘dini alohida ajratadi: daryoning ikki tomoni bog‘lar, ekinzorlar, obod joylar va ko‘m-ko‘k maysazorlardan iborat edi. Bu ta’rif tasodifiy emas.

Abu Sa’d Abdulkarim Sam’oniyning “Al-Ansob” (“Nasablar”) asarida qayd etilishicha, bir kuni Abu Hafs Umar ibn Muhammad Sug‘diy Xushufag‘on qishlog‘ida joylashgan hovlisidagi katta daraxtning ostida do‘stlar davrasida suhbat qurib o‘tirgan edi. Abu Hafs do‘stlariga: “Sizlar dunyoning eng ko‘rkam va eng xushmanzara joyida o‘tiribsizlar”, dedi. “Nima uchun?” – deb so‘rashdi. “Chunki dunyoda Samarqandning Sug‘di kabi ko‘rkam, xushmanzara, bahavo joy topilmaydi. Sug‘dda esa Xushufag‘onga teng keladigan joy yo‘q. Xushufag‘onda esa mening bu bog‘imdan ko‘ra obod joy yo‘q, bog‘imda esa bu daraxtning soyasiga teng keladigan sersoya va salqin joyning o‘zi yo‘q”, dedi.

Hofizi Abruning “Geografiya” asarida shunday so‘zlarni o‘qiymiz: “Movarounnahr mamlakati bo‘ylab to‘rtta shahar bor, bir-biridan go‘zal. Avval Buxoro – ilm va fazilat manbayi, Rum va Chin diyorlariga ham dong‘i ketgan. Ulug‘ Samarqand shahri – saltanat makoni... Movarounnahrning poytaxti Samarqand bo‘lgan ekan... Qaysi joyga bormagin, katta hovlilarning birortasi hovuzsiz va daraxtsiz emas. Shu bois, Samarqand shahri “Dunyoning jannati” degan sharafli unvonga sazovor bo‘lgan”. Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temur davridagi Samarqandni tasvirlar ekan, uning obodligi, aholisi va dunyoning turli tomonlaridan keluvchilar ko‘pligini, jahongir Amir Temur hukmronligi va adolati tufayli nihoyatda obod shaharga aylanganini alohida ta’kidlaydi.

Nemis sharqshunosi Adam Mes “Islom renessansi” asarida bir qator sharq shaharlarini psixologik turlarga ajratar ekan, Samarqandga mag‘rurlik xos, deya ta’riflaydi. Mag‘rur shahar, ilm-fan markazi va savdo chorrahasi bo‘lgan Samarqand Yangi O‘zbekiston davrida dunyoga yanada kengroq yuz ochmoqda. Qadimda turli xalqlar, madaniyatlar va savdo yo‘llarini birlashtirgan bu shahar bugun ham xalqaro muloqot, ilm-fan, turizm va madaniy hamkorlik markazlaridan biri sifatida o‘z mavqeyini mustahkamlamoqda.

Samarqandning buyukligi faqat uning qadimiyligida emas. Uning asrlar davomida yaratilgan madaniy merosida, ilmga bo‘lgan ehtiromida, bunyodkorlik an’analarida va turli xalqlarni birlashtira olganida namoyon bo‘ladi. Asrlar davomida dunyoni o‘ziga chorlagan Samarqand bugun ham o‘zining tarixiy salobati, ma’naviy boyligi va zamonaviy qiyofasi bilan jahon e’tiborini jalb etmoqda. Shu ma’noda, Samarqand nafaqat o‘tmishning yodgorligi, balki kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yayotgan boqiy shahardir.

Alisher SANDIBOYEV,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori


TUHFA

“KITOB, MENING DO‘STIMSAN”

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida yana bir turkum kitoblar nashrdan chiqdi. “Sohibqironga ehtirom” nomli yangi to‘plamdan shonli ajdodimiz Amir Temurga bag‘ishlab yozilgan nazmiy asarlar o‘rin olgan.

Atoqli shoirimiz Abdulla Oripovning shunday satrlari bor:

Har qancha faxr etsang arziydi, o‘zbek,
Balqibsan bir zotning yuksak shonida.
Temurbek yulduzi Oltin qoziqdek
Charaqlar buyuklar kahkashonida.



Abdurauf Fitrat, Alixonto‘ra Sog‘uniy singari atoqli ma’rifatparvarlarning mashhur asarlari bilan boshlangan to‘plam zamonaviy adabiyotimizning zabardast namoyandalari va iste’dodli yosh ijodkorlarning she’rlari bilan davom etadi.

O‘zbek bolalar adabiyoti tarixida taniqli shoir Zafar Diyor ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning “Yashna, Vatan, Jon Vatan, Senga sharaf-shon, Vatan”, “Laylak keldi, yoz bo‘ldi, Qanoti qog‘oz bo‘ldi”, “Do‘stlar, mening yurtimni O‘zbekiston, deydilar”, “Archa-archa, jon archa, Yaproqlaring ninacha”, “Gunafsha-xon, gunafsha, Kulishlaring chiroyli”, “Boqqa kirdim, olmalar Qip-qizarib pishibdi”, “Yosh o‘ynoqi ko‘zlarim Shuur olar kitobdan”, “Oppoq. Tiniq, oppoq qor O‘ynab tushar osmondan” singari ravon satrlar bilan boshlanuvchi o‘nlab she’rlarini ming-minglab yurtdoshlarimiz yoddan biladi. Xuddi shunday esda qolarli she’rlar asosida tartib berilgan shoirning yangi to‘plami “Kitob, mening do‘stimsan” deb nomlangan.







O‘ziga xos uslubda bitilgan qissa va hikoyalari, falsafiy she’rlari bilan tanilgan Suhbat Aflotuniy bir she’rida: “Bo‘yniga tosh bog‘lab cho‘kar tubsizlik”, deb yozadi. Uning yana bir she’ridagi: “Yashayman o‘z-o‘zimdan xorijda / onda-sonda o‘zimga maktub yozaman / yanada kam ularga yo‘llayman javob” kabi satrlar kishini o‘ylashga, mushohada yuritishga chorlaydi. Adibning yangi “Saylanma”siga “Tun qisqa” nomli qissasi, o‘ndan ziyod hikoyasi va turkum she’rlari kiritilgan. Asarlarni Tursun Ali, Muhabbat Yo‘ldosheva, Dilfuza Qarshiboyeva, Gulnoz Tojiboyeva, Risolat Haydarova, Davron Rajab, Go‘zal Begim, Shohsanam Ro‘zimat qizi, Nodira Ibrohimova, Alisher Fayzullayev, Ma’ruf Toshpo‘latov kabi tarjimonlar o‘zbek tiliga o‘girgan. Ayni saylanma rus tilida ham alohida muqova ostida chop etilgani e’tiborlidir.

Nigina ISKANDAROVA

ASRNI BO‘YLAGAN ADIB

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuningdek, adib kitoblarining turli yillardagi nashrlari, xususan, xorijiy tillardagi nusxalari ko‘rgazmasi, hujjatli film namoyishi ham o‘tkazildi. Anjumanda so‘z olganlar Odil Yoqubov hayoti va faoliyatining serqirraligi, jasoratli adibning murakkab davrlar silsilasida ham insoniyligi va qalamga sadoqatini asrab qolgani, jamoat arbobi sifatida nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyo va turkiy dunyoda ham hurmat qozonganini alohida ta’kidlab o‘tdilar.

* * *

Odil Yoqubov jahon siyosiy xaritasi qayta chizilib, qudratli davlatlar Yer yuzini taqsimlab olayotgan, oqibatda ko‘hna Turkiston mustamlakachilar qo‘l ostiga o‘tib, mintaqada sovetlar hokimiyati o‘rnatilayotgan davrda tug‘ildi (1926). O‘smirligi qatag‘on mashinasi avj nuqtaga yetgan, millat ziyolilari, allomalari, so‘z zargarlari otuv va surgunga hukm qilingan zamonda kechdi (1937-yilda davlat xizmatchisi bo‘lgan otasi hibsga olindi). Yigitlik umrining bahorini Ikkinchi Jahon urushining izg‘irini beayov yulqiladi (1945–1951). Faqat 1956-yilga kelib-gina, O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatishga muvaffaq bo‘ldi. Adabiyot dunyosiga kirib kelganida esa, 50-yillar qatag‘oni boshlanib ketdi.

Odil Yoqubov yozuvchi sifatida ilhomga to‘lgan yillari sovet davlati tiyiqsiz qudrati bilan ichki va tashqi dunyoga olov purkab turar edi. Bunday





sharoitda durdona asarlar yozish mumkinligiga ishonish qiyin. Lekin adib buni uddaladi. “Dastlabki qadam” (1953), “Ikki muhabbat” (1955), “Tilla uzuk”, “Bir feleton qissasi” (1961), “Qanot juft bo‘ladi”, “Matluba” (1970) singari qissa va hikoyalar to‘plamlari, “Er boshiga ish tushsa…” (1966), “Diyonat” (1977), “Oqqushlar, oppoq qushlar” (1988), “Adolat manzili” (1998) kabi romanlari o‘z davrida katta shov-shuvlarga, kitobxonlaning yuksak muhabbatiga sazovor bo‘ldi. “Muqaddas” (1960) qissasi, “Ulug‘bek xazinasi” (1973), “Ko‘hna dunyo” (1982) romanlari asr oshib, bugungi kunimizda ham sevib o‘qilmoqda.

* * *

Adib yubileyining Yangi O‘zbekiston tarixida ilk bor 5 million tonnadan ziyod yuksak paxta xirmoni bunyod etilib, rekord natijaga erishilgan shukuhli kunlarga to‘g‘ri kelganida ham hikmat borday. Zero, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “paxtachilik el-yurtimizga manfaat emas, balki azob-uqubat va, oxir-oqibatda, “o‘zbek ishi” degan quruq tuhmat olib kelgan og‘ir kunlar” haqida birinchilardan bo‘lib bong urgan jasoratli shaxs aynan Odil Yoqubov edi. Adibning 1989-yili “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida “Muruvvatni unutmaylik!” nomi bilan chop etilgan ushbu tarixiy ma’ruzasisiz adib faoliyati va shaxsiyatiga to‘laqonli baho bera olmaymiz. Bugun yangi zamonda ustoz ijodkorni o‘ylantirgan, qiynagan paxtachilikka oid barcha masalalar munosib yechimini topdi.

* * *


Odil Yoqubovning adabiyot va jamiyat oldidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Ustoz hayotlik chog‘larida “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni, “Do‘stlik”, “El-yurt hurmati” ordenlariga sazovor bo‘lgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yilda imzolagan “Mamlakatimizda madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan bir guruh marhum ijodkorlarni mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq Odil Yoqubov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Prezidentining 2019-yil 7-mart kuni qabul qilingan “8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, adibning sadoqatli umr yo‘ldoshi Maryam Yoqubova ham “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlanganini aytib o‘tish joiz.

Ushbu xotira kechasi ham Maryam aya Yoqubova uchun ulug‘ siylov bo‘ldi. Kamina tadbir davomida u kishi bilan yonma-yon o‘tirib, beixtiyor Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening”, Kibriyo Qahhorovaning “Chorak asr hamnafas” kitoblari qatorida, Maryam Yoqubovaning o‘g‘li Iskandar bilan birglikda yozgan “Ulug‘ va sadoqatli muhabbat” kitobi ham turishini o‘yladim.

* * *

Xotira kechasida turli millat vakillari va turli yosh toifalarining jam bo‘lgani, hatto, yoshlar muhtasham tadbirni tik oyoqda tomosha qilgani Odil Yoqubov xotirasi barhayot ekani, uning ikkinchi umri asarlari orqali davom etayotganidan darak berib turdi.

Gulchehra UMAROVA



> **Qalam abadiy yodgorliklar qoldirmaganida, xalqlarning rivoyatlarini biz qayerdan bilib olgan bo‘lardik.**
>
> **Abu Rayhon BERUNIY**

E’TIROF

“OLTIN QALAM” UMMON ORTIDA

“Oltin qalam” XX Milliy mukofoti xalqaro tanlovi natijalariga ko‘ra, “Chet ellik jurnalistning O‘zbekiston haqidagi eng yaxshi materiali uchun” yo‘nalishida “Diplomatic Watch” jurnali bosh muharriri Viktor Gotevbe 2-o‘ringa munosib ko‘rilgan edi. O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi delegatsiyasining AQSH safari doirasida Vashington shahridagi elchixonamizda mukofot o‘z egasiga topshirildi.

Tantanali marosimda O‘zbekistonning AQSHdagi Favqulodda va muxtor elchisi Furqat Sidiqov, xorijiy davlatlar diplomatlari, ekspertlar va jurnalistlar ishtirok etdi. Tadbirda so‘zga chiqqanlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan “Oltin qalam” milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov doirasida 2021-yilda “Chet ellik jurnalistning O‘zbekiston haqidagi eng yaxshi materiali” nominatsiyasining ta’sis etilishi o‘ziga xos rag‘bat ekanini ta’kidladilar. O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi Shuhrat Oripov bu amaliyot xalqaro axborot makonida Vatanimiz haqidagi axborotlarning salmog‘i oshishiga xizmat qilayotganini aytib o‘tdi.

Marosimda Viktor Gotevbe bu yuksak e’tirofdan mamnunligi va bu uning hayotidagi kutilmagan yorqin voqea bo‘lganini bildirdi. Tadbir doirasida Viktor Gotevbe hamda “The Hill” gazetasining jamoatchi muxbiri Jeyms Dursoga O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasining faxriy a’zolik guvohnomalari topshirildi. Tahlilchi va jurnalist Durso AQSH siyosati, xususan, Markaziy Osiyo bilan aloqalar, Afg‘onistondagi vaziyat haqida maqolalar e’lon qilib boradi. Ma’lumot uchun: Jeyms Durso O‘zbekiston bilan bog‘liq tahliliy materiallari uchun 2024-yilda “Oltin qalam” mukofoti sohibi bo‘lgan.

Hozirda AQSHda faoliyat olib borayotgan jurnalist Otabek Eshmamatov va Kun.uz veb-saytining AQSHdagi maxsus muxbiri Shohrux Majidov ham O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindi.

“Oltin qalam”ning ovozasi ummon ortida ham aks sado bermoqda, tom ma’nodagi xalqaro tanlov sifatida qamrovi va nufuzini oshirmoqda. Bu esa kelgusida xorijlik mualliflar bilan o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jamoliddin BADALOV



Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 157
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 591
Lotin yozuvida – 11 566
Media kuzatuvchilar – 90 284
Buyurtma: G – 1140
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (93) 636-72-32
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI